

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

Navoiy davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası

Tilavova G.X.

Husnixat va uni o'qitish metodikasi
(kunduzgi bo'lim talabalar uchun ma'ruza matnlari)

Navoiy - 2008

Ushbu ma'ruzalar matni "Husnixat va uni o'qitish metodikasi" fanidan talabalarga ma'ruza o'qish uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchi: o'qituvchi Tilovova G.X.

Taqrizchi: p.f.n. Ernazarova M.S.

"Husnixat va uni o'qitish metodikasi" fanidan ma'ruza matni kafedraning 2007 yil, 27 avgustdagi 1 – sonli yig'ilishida muhokama etishga tavsiya qilingan.

So'z boshi

Ushbu ma'ruza va amaliy mashqlar to'plami boshlang'ich sinflarda husnixat rejasi va dasturi asosida "Husnixat" darsligiga moslab yozilgan. O'qituvchilarni yangi o'zbek imlosi va darslikning tuzilishi bilan tanishtiradi. Bu to'plam "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta'lim to'g'risida" gi qonun tamoyillari asosida yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 – 2008 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish dasturini ishlab chiqish maqsadida bergan fvrmo'yishida

- Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish tizimini, maktablarning oliy ma'lumotli o'quvchilar bilan ta'minlash darajasini tanqidiy tahlil qilish haqida ko'rsatmalar berdi. * (19.02.04 yil "Xalq so'zi" gazetasi)

SHu ko'rsatmalarni ro'yobga chiqarish maqsadida ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarining imloviy bilim savodxonligini oshirish, chiroyli yozuvga o'rgatish, malakalarini shakllantirishga yordam beruvchi husnixat o'qitish metodikasi fanidan ushbu qo'llanma yaratildi.

Ushbu ma'ruza va amaliy mashqlar to'plami husnixat o'qitish metodikasining tamoyillari, yozuv turlari, yozuvning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati, xattotlik san'atining rivojlanish tarixi, yozuvga o'rgatish jarayoni va uning xususiyati, shuningdek, yozuvga o'rgatishning samarali usullari xususida fikr bayon qilingan. Maxsus sirtqi bo'lim talabalari amaliy ko'nikmalarga ega bo'lganliklari uchun nazariy masalalarga ko'proq o'rin berildi. Ma'ruza va amaliy mashqlar boshlang'ich sinf o'quvchilari, maxsus sirtqi bo'lim talabalari uchun mo'ljallangan.

Mavzu: Husnixat va uni o'qitish metodikasi fanining maqsadi va vazifalari

Reja:

1. Husnixaga o'rgatishning maqsad va vazifalari.
 2. Yozuv jarayonini tashkil qilish uslubiyati.
 3. Husnixat o'qitish uslubiyati fani va boshqa fanlar.
- Adabiyotlar: 1, 2, 3, 4.

Tayanch iboralar: Yozuv, savodxonlik, og'zaki nutq, yozish jarayoni, ongli o'qish va yozish, yozuv daftarlari, matnlar sifati, topshiriqlar xususiyati, aqliy faoliyat, tez va bexato yozish, harf shakllari, harflarni bog'lash, so'z qatorlari, daftar chiziqlari, kichik va bosh harf, imloviy xatolar, xatolarning oldini olish yo'llari, yozuv tezligi, o'xshash harflar, bir va ikki chiziqli darflar, didaktik qoidalar (yoshga xos xususiyatlar, tushunarliklik, onglilik), tovush, xattaxta, avtoruchka, to'g'ri o'tirish qoidalari, yozuv qiyaligi, harf unsurlari, barmoq va qo'l muskullari, genetic usul.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga chiroyli yozuvni o'rgatish savodxonlikning poydevori hisoblanadi. Boshlang'ich sinfda o'qitishdan maqsad o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini ravon qilish hamda ularni har tomonlama yetuk insonlar etib tarbiyalash bilan bir qatorda, ularni go'zallikka intiluvchi, uni yurakdan his qila oladigan go'zallikni yaratishga intiladigan kishilar qilib voyaga yetkazishni nazarda tutadi.

Husnixatga o'qitishdan asosiy maqsad kichik yoshdagi o'quvchilarga yozishdek murakkab jarayonni o'rgatish orqali, ularning chiroyli yozuv malakalarini rivojlantirishdan iboratdir. O'quv fani sifatida husnixatning oldiga bir qator vazifalar qo'yiladi.

Bu vazifalar ko'p qirrali bo'lib o'quvchilarni aqliy rivojlanishga, ularning atrof - muhit haqidagi bilimlarni kengaytirishga axloqiy va estetik didlarini tarbiyalashga, ongli o'qish va yozish malakalarni hamda yozuv daftar bilan ishlash ko'nikmalarini hamda yozuv daftar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

Bu vazifalarning barchasi o'zaro bog'liq holda amalga oshiriladi. Ularni hal qilish zaruriy yozuv malakalarini egallashga darslikda berilgan o'quvchilar saviyasiga mos nazariy va amaliy material uyg'unlashtirilib, o'zlashtirish ustida ishlashni maqsadga muvofiq uyushtirish, shuningdek, matnlar sifatini topshiriqlar xususiyatini va bolalar aqliy faoliyatining o'ziga xos tomonlarini belgilaydigan qator uslubiy shart – sharoitlarga bog'liq.

Bola kamolotining shakllanishi ko'p jihatdan chiroyli yozuvga bog'liq. Chiroyli yozish orqali bolalar boshqa fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladilar.

Inson hayotida yozuv muhim o'rin tutadi, chunki u har kuni turli – tuman qog'ozlar va hujjatlardan foydalanadi. Bularning hammasi chiroyli va bexato yozishni taqozo etadi. Ammo qisqa muddat ichida o'quvchilarda chiroyli, tez va bexato yozish malakalarini o'stirish mumkin, buning uchun bir necha yillik

mehnat talab etiladi. Chiroyli yozuvga o'rgatish uchun bolalarning maktabga qadam qo'ygan kunlardan boshlab izchil mashqlar olib boorish zarur.

Husnixat malakasini shakllantirish uchun birinchi navbatda harflarning shaklini to'g'ri tasavvur etishga, bir xil qiyalikda yozishga so'zlarda harflarni to'g'ri joylashtirishga o'rgatiladi. Daftar chiziqlari birin ketin almashuvi davomida harflarning qiyaligini va ular orasidagi masofani to'g'ri saqlash, kichik va bosh harflarning nisbatini to'g'ri chamalab yozishga o'rgatish juda muhimdir. Husnixat darslarida ma'lum guruhga oid harflarni yozishga o'rgatish o'quvchilarda uchraydigan ayrim xatolarning oldini olish va tuzatish ustida ish olib borish lozim. Yozuv tezligi oshishi bilan ayrim bir- biriga o'xshash harflarni shaklini bo'zib yozish hollari uchraganda esa, ularni qayta mashq qildirish kerak. Chiroyli yozuvga o'rgatishda daftardan to'g'ri foydalanishga e'tibor berish zaryr. Ikki chiziqli daftardan bir chiziqli daftarga o'tganda o'quvchilar oldiga qatorvazifalar qo'yadi. Chiroyli yozuvga o'rgatish umumiy didaktik qoidalar bilan birga, yozuv malakasini shakllantiruvchi o'ziga xosqoidalarini ham o'z ichiga oladi.

Umumiy didaktik qoidalar takroriylik, ko'rgazmalilik, yosh va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, tushunarliklik, ongliklik husnixat metodikasining maqad va vazifalarini amalga oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Yozuvga - husnixatga o'rgatishning vazifasi harfni, so'z va gapni kitobdan va xattaxtdan to'g'ri, husnixat qoidalariga rioya qilib ko'chirib yozish, yozganlarni tekshira olish va yo'l qo'ygan kamchilik va xatolarini o'qituvchi rahbarligida yoki o'zi tuzata olishi kerak.

Har bir o'quvchi u yoki bu harfni tushunib yozishi, harflarning bir- biriga nisbatini, balandligini qiyaligini avtoruchkani ushlash va to'g'ri o'tirish qoidalarini yaxshi bilishi lozim. Chiroyli yozuv malakalarini o'stirishda eng birinchi qoida bu ozodalik talablari va yozuvning qiyaligini to'g'ri saqlashga eslatish so'ngra harf va harf elementlari orasidagi masofani chamalab yozish qoidalari singdirib boriladi. Bu qoidalar kyenchalik takomillashtiradi. Har bir yozuv mashqi aniq maqsad asosida oson, tushunarli olib borilishi kerak. Buning uchun chiroyli yozuvga, o'rgatishning turli usullaridan foydalanish lozim. Bolalarning yozuv malakalarini hosil qilishga ularning yosh va o'ziga xos xususiyatlari: barmoq va qo'l muskullarini harakat tezligi, markaziy nerv sistemasi tomonidan nerv muskullarining boshqarilishi hisobga olinishi lozim. Chiroyli yozuv darslarida harflarning shakli haqida mashq o'tkazilganda oddiydan murakkabga tomon boriladi, chunki alifbodagi barcha harflaryozilish shakliga ko'ra guruhlariga ajratiladi. Birinchi guruhda yozilish shakli oson, keyingi guruhlarda yozilish shakli murakkab bo'lgan harflar kiritiladi. Bunday usulda darsni tashkil etish husnixat o'qitish o'qitish metodikasida genetic usul deb ataladi.

O'qituvchi birinchi navbatda har bir o'quvchiga partada to'g'ri o'tirish qoidalarini erinmay tushuntirish va mashq qildirish darkor. Keyinchalik o'quvchi ruchkani qanday ushlash, daftar tutish holati hamda harflarni yozayotganligini: sekin yoki tez yozishni kuzatib borishi lozim. Husnixat

malakasini shakllantirishni faqat boshlang'ich sinflarda emas, balki yuqori sinflarda takomillashtirib borishi zarur.

Husnixat o'qitish metodikasi fani bir qator boshqa fanlar bilan chambarchas bog'liq. Estetika, fiziologiya, gigiena, tilshunoslik kabi fanlar bilan o'quvchilarda go'zallikka bo'lgan qiziqishlarini o'stiradi. Chiroyli yozish ham go'zallikning bir ko'rinishidir. Sharq mutaffakkirlaridan biri bunday degan ekanlar: „Chiroyli fikrlay oladi“. Darhaqiqat, o'quvchi maktabga kelgan kunidan boshlab chiroyli yozuv malakalari haqida tanish boshlaydi. Bundan tashqari o'quvchini chiroyli yozuvga o'rgatish jarayonida bolaning har tomonlama nerv sistemasi, qo'l harakatlari va muskullari, ko'rish organlari, eshitish organlari umurtqa pog'onasi rivojlangan bo'lishi kerak. O'quvchi shundagina husnixat malakalarini o'lashtira oladi. Agar o'quvchining biz yuqorida tilga olgan organlardan biri yaxshi taraqqiy etmagan bo'say, u o'quvchida chiroyli yozuv malakalari to'g'ri yo'lga qo'yilmaydi. Shunday holatlarning kelib chiqishi kelajakda o'z tasirini ko'rsatadi. O'quvchipartada o'tirib yozish jarayonida, eng avvalo yozuv qurollarini to'g'ri joylahtirishi zarur. Buning uchun birinchi navbatda o'quvchi partada to'g'ri o'tirishi kerak. Chunki o'quvchi partada to'g'ri o'tira olmasa, egri o'tirsa umurtqasi noto'g'ri o'sadi va bolaning jismoniy o'sishiga salbiy ta'sir qiladi va hattoki bola bir umr nogiron bo'lib qolish holatigacha borib yetadi. Buning uchun o'qituvchi bolaning partada o'tirish, turish, daftarlarni ushlab va yozish qoidalarini ko'proq ta'kidlab turishi zarur.

Husnixat o'qitish metodikasi fani bevosita tilshunoslik fani bilan ham bog'liq. Har bir yoziladigan harf avvalo, nazariy o'rganilgan va asoslangan. Ushbu harflar asosida husnixat mashg'ulotlari o'tkaziladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Husnixat va uni o'qitish metodikasi fanining maqsadi nimalardan iborat?
2. Husnixatga o'rgatishning asosiy vazifalarini sharhlab bering.
3. Chiroyli yozuv inson hayotida qanday o'rin tutadi? Buni misollar orqali tushuntiring.
4. Husnixat va uni o'qitish metodikasi fani qaysi fanlar bilan bevosita hamkorlikda ish olib boradi?
5. Ongli va bexato yozish deganda nimani tushunasiz? Bexato va chiroyli yozish o'rtasida qanday o'xshash va farqli jihatlari mavjud?
6. Husnixat malakasini shakllantirish uchun qanday qoidalariga amal qilish zarur?
7. Yozuvga o'rgatishning umumiy didaktik qoidalarini aytib bering.

Mavzu: YOZUVNING PAYDO BO'LISH TARIXI VA UNING TARAQQIOY BOSQICHLARI

REJA:

1. Yozuvning paydo bo'lishi.
2. Til va yozuvning o'zaro munosabati.
3. Yozuv turlari.
4. Fonografik yozuv .Alfavit.

Tayanch iboralar: Kitob, frazeografiya, frazeogramma, fraza, logografik, yozuv , logos, misr, yozuvi, arab yozuvi, oromiy yozuvi, morfemografiya, logogramma, morfema, sillabografiya, bo'g'in yozuvi sillabogramma, mayya yozuvi, koreya yozuvi, bo'g'in yozuv. fonema undosh, unli, krit yozuvi, kibr yozuvi, habash yozuvi, yapon yozuvi, krill yozuvi fonos, konsonant yozuvi, vocal yozuvi, finik mixsimon yozuv, yeroglitik yozuv, piktografiya, til evolyusiyasi, alfavit , turkiy yozuv.

Adabiyotlar: 7, 9, 10, 11, 13, 15, 17.

Bugungi hayotimizni kitobsiz tasavvur qila olmaymiz. Inson o'zining uzoq yillik tarixi davomida kitobdan yaxshiroq do'st va mehribon ustozni uchratmaydi. U insonga kamolot yo'lini ko'rsatdi va hamma vaqt og'irini yengil qilib keldi. Lekin shuni ham unutmaslik lozimki, agar yozuv bo'lmaganida inson kitobday bebaho do'stga ega bo'lmagan bo'lur edi.

Yozuv qachon paydo bo'lgan? U qanday davrlarni boshidan kechirib, hozirgi mavqega erishgan? Bu savollarga javob topish uchun insoniyat tarixiga nazar tashlash, uning aqliy yuksalish bosqichlarini birma – bir ko'zdan kechirmoq lozim.

Albatta, inson avval gapirishni o'rgandi, so'ngra unda o'z tajribalarini kelgusi avlodlarga yetkazish istagi shakllandi va qo'lga qalam (avval bu vazifani oddiy tosh bajargan) oldi.

Yozuv kishilarning o'zaro aloqa qilishida, fikr almashishida muhim vositadir. Yozuvning paydo bo'lishi, aloqaning maxsus vositasi sifatida xizmatqilishkatta ahamiyatga ega bo'ldi. Yozuv tufayli kishilik tajribasi avloddan - avlodga yetkazilmoqda. Faqat yozuv borligi uchungina biz tilning tarixiy taraqqiyotini kuzatish imkoniyatiga ega bo'lamiz, oldingi I – ming yilliklarda paydo bo'lganligi ilm ahliga sir emas. Lekin shunga qaramay ba'zi tillarning yozuvi hozirgacha yo'q. masalan, Amerika qit'asidagi mahalliy aholining ayrimlari o'z yozuviga ega emas.

Yozuvni o'rganishning boshlang'ich davrlarida xotirada saqlab qolish vositasi sifatida tabiat predmetlaridan foydalanilgan. Masalan, slaviyan qabilalarida mehmonni non va tuz bilan kutib olish do'stlik va hurmat belgisi hisoblangan. Shunday holatni o'zimizning afsonalarimizda ham uchratishimiz mumkin. Masalan, qayroqtosh, oyna va taroq. Agar asar

qahramoni orqasiga oynani tashlasa katta dengiz paydo bo'ladi, agar taroqni tashlasa kishi o'lmas o'rmon hosil bo'ladi, agar toshni tashlasa baland cho'qqili tog' paydo bo'ladi, yovuz kuchlar bu to'siqlardan o'tolmaydilar.

Neolit davriga kelib odamlarba'zi hodisa va voqealarni uzoq masofaga yetkazish niyatini jonli va jonsiz narsalarning rasmini chizish orqali amalga oshirganlar. Bunday yozuv frazeografiya deb nom lgan. Frazeografiya degani – fraza gap, grafiya – yozaman, ya'ni gap yozaman ma'nosini bildiradi. Frazeogramma ikki turga bo'linadi: a) aks (tasvir) yozuvi; b) qadimgi shartli alomatlar. Aks (tasvir) yozuvini piktografiya (piktus – tasvir, grafiya -yozaman) deb ataganlar. Yozuvnig bu turi mukammal bo'lmadi, birinchidan rasmlar orasidagi munosabatlarini, ularning tartibini ko'rsata olmaydi va bu bir maktubni bir necha xil o'qishga, talqin qilishga olib keladi, ikkinchidan bu yozuvda mavhum tushunchalarni aks ettirish imkoni yo'q edi.

Qadimgi shartli alomatlar sirasiga avlod va qabila nishonlari, avlod, qabila va shaxs mulki alomatlari (mas. Tamg'a, dog'), ustalar muhri va boshqalar kiradi. Bu inson va alomatlar uy hayvonlari, qo'rol aslaha, sapoldan yasalgan idishlar va hatto asirlar (qullar) ga qo'yiladi. Bu qadimgi shartli belgi va alomatlarni hozir ham ba'zi bir taraqqiyotdan orqada qolgan xalqlar (mas. Amerika hududlari, Uzoq shimol, Afrika, Avstraliya xalqlari) ishlatishadi. Taraqqiyot bilan baravar qadam tashlayotgan xalqlar ham bu belgi va alomatlarga murojaat qilishadi. Masalan pogonlar, oily maktab, gerb va bayroqdagi nishon xaritalardagi belgilar shunga kiradi.

Yozuv ijtimoiy talablar asosida jamiyatning muayan taraqqiyoti davrida paydo bo'lgan va uning rivojlanishi bilan bog'liq ravishda mukammallasha brogan. Yozuv bilan til o'zaro o'zaro uzviy aloqadordir. Shuning uchun ham til va uozuv o'rtasida umumiy tomonlar mavjud. Yozuv ko'p hollarda tilning o'rnini bosadi. Ba'zi hollarda esa tilda bo'lmagan imkoniyatlar yozuv orqali yuzaga chiqadi. Masalan, yozuv tufayli kishilar uzoq masofadan turib bir – birlari bilan aloqa bog'lashlari mumkin. Biroq yozuvning tilga nisbatan o'ziga xos kamchiliklari ham mavjud:

- a) Tilning to'liq aksi emas, balki yozuvdagi shartli va sun'iy aks beriladi.
- b) Yozuvning xizmat doirasi chegaralangan;
- c) Yozuv orqali ish ko'rilganda vaqtdan yutqaziladi;
- g) Tegishli sharoit bo'lmaganda o'zining ahamiyatini yo'qotadi. Yozuv tilga nisbatan kam o'zgaradi, ikkinchi tomondan ijtimoiy -siyosiy, jamiyat talabiga muvofiq butunlay o'zgarishi mumkin.

Til jamiyat bilan bir vaqtda yuzaga kelgan. U jamiyatning jamiyat bo'lishida asosiy rol o'ynagan. Tilsiz jamiyat bo'lishi mumkin emas, yozuvsiz jamiyat mavjud bo'lgan.

Yozuvning asosiyxususiyatlaridan biri uning grafik belgi bo'lib xizmat qila olishidir. Nutq ham yozuv ham bir maqsadga xizmat qiladi, ya'ni odamlar orasidagi aloqalarni yaxshillashda madaniy- adabiy tajribalarni kyeingi avlodlarga yetkazishdir.

Nutq ham til va yozuv kabi 2 xil ko'rinishga ega.

1. Og'zaki nutq

2. Yozma nutq.

Og'zaki nutq – tilning tabiiy ko'rinishidir.

Yozma nutq – tabiiy nutqning yozuvdagi ifodasidir. Yozma nutqda kishilar o'z fikrlarini turli shartli belgilartizimi vositasida ifodalaydi.

Jamiyat taraqqiyotida frazeografiya yozuvi asta – sekin mukammallashib bordi va natijada logografiya yozuvi paydo bo'ldi. Ba'zi olimlar bu yozuv turini ideogramma ham deyishadi, chunki bunday yozuvdagi simvollar faqat bizni o'rab turgan muhitdagi narsa – predmetlarni aks ettirib qolmay, tildagi so'zlarni ham aks ettiradi. Tildagi har bir so'z simvoliga ega bo'ladi.

Logografiya (logos – so'z, grafiya – yozaman) yozuvdagi har bir alomat (logogrammalar) bir so'zni bildirar edi. Bu yozuvda alomatlar miqdori so'zlar miqdoriga mustaqil fe'l (xabar)ning semantic vohidlariga tengdir.

Logografik yozuvning piktografik yozuvdan afzalligi qo'yidagilardan iborat.

a) Logografik yozuv xabar qilinishi lonim bo'igan mazmunni ancha mufassal aks ettira oladi.

b) Piktografik yozuvda so'z tartibi va soz shakllari noaniqroq, logografik yozuvda esa aniq bo'ladi.

v) Piktografik yozuv sub'yektivlikka, ixtiyoriylikka yo'adi.

Logografik yozuvning birinchi mukammallashgan shakli iyeroglifik yozuvdir. “Iyeroglifik” so'zi yunoncha so'zdan olingan bo'lib, “muqaddas yozuv” degan ma'noni anglatadi.

Bu yozuvdan dastavval Arabistonda keng foydalilgan. Keyinchalik Xitoy davlati ham shu yozuvga o'tadi va bu yozuvda hozirgacha ham foydalanib kelinmoqda

I- II asrda Stoy Shenm Xi iyerogliflarning katalogini tuzib bunda 10,5 ming iyeroglifni kiritadi. Xitoy tilining to'liq lo'g'atida 40 ming ieyogliflar qayd qilingan.

Yozuvning ommaviylashuvi uchun uni albatta osonlashtirish soddalash va qulaylashtirish zarur edi. Masalan „ko'z yoshi” so'zini yozib ko'rsatish uchun „koz” va “suv” ning kombinatsiyasi ko'rsatilgan. Lekin bunday soddalashtirish unumsiz edi.

Yozuv tarixining uchinchi bosqichida orfemografiya yozuvlari kiradi. Bora-bora logogrammalar so'z asosi (morfemalar) ni bildiradigan bo'ldi (mas: kelishik qo'shimchalar) va natijada morfemografiya yozuvlari keng tarqaldi.

To'rtinchi tur yozuvlar, bu sillabografiya (bo'g'in) yozuvlaridir. Bunda har bir alomat bir bo'g'inni ifodalaydi. Bu yozuv turi milodgacha bo'lgan 2- 1 ming yilliklarda paydo bo'lgan. Bu yozuvni uch guruhga bo'ladilar: birinchi guruhga – mayya, mexiy va koreya yozuvlari kiradi. Bular da alomatlar har xil bo'g'inlar – alohida unlilar, undosh va unli ovozlarni ifodalaydi. Ikkinchi guruhga krit, kirp, xabash va yapon yozuvlari mansubdir. Uchinchi guruhga hind xatlari kiradi.

Yozuv taraqqiyotining beshinchi bosqichida ovoz fonemani bildiruvchi yozuvlar kiradi . Bularni umumlashtirib fonografiya (fonos- ovoz, grafiya – yozaman) deb nomladilar. Bu yozuvlarning har bir alomati bir ovoz yoki

fonemani bildiradi (finik, yunon, lotin, rus va arab yozuvlari shular jumlasidandir).

Fonografiya yozuvlarini ikki qismga bo'ladilar:

- a) consonant yozuvlari;
- b) vocal yozuvlari.

Konsonant yozuvlarga finik, ugarit, ibron, orom, arab va boshqa yozuvlar mansub bo'lib, ularda har bir asosiy alomat (harf) unli va udosh ovozlarni ifodalaydi. Vokal yozuvlarda har bir asosiy alomat (harf) unli va undosh ovozni bildiradi.

Hozirgi vaqtda jahon aholisining taxminan to'rt dan uch qismi harf – tovush yozuvidan foydalaniladi. Lotin yozuvi asosida aholining 30% slavyan- krill yozuvidan 10% arab yozuvidan 10% hind yozuvidan 20% aholi, foydalanadi.

Markaziy Osiyoda yashagan xalqlar eng qadimdan boshlab o'z yozuv madaniyatiga ega bo'lgan. Ular harf tovush yozuvning eng qadimgi shakllari bo'lmish so'g'd va xorazmiy yozuvlaridan foydalanganlar. Bu yozuvlar esa oromiy alifbosi asosida yuzaga kelgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek harf – tovush (fonografik) yozuvi alfavitni vujudga keltirdi. Shundan kelib chiqib, tarixiy qabul qilingan tartibda berilgan harflar yig'indisiga alfavit deb nom berganlar.

Yozuv tarixga nazar tashlasak ko'ramizki, alfavit yaratish uchun juda ko'p izlaganlar. Shu soha tadqiqotchilarining ta'kidlashlaricha harf tovush yozuvining kelib chiqishi Misr, Gretsiya va Finkiyaning uzoq o'tmishiga borib tqaladi. Hozircha harf – tovush yozuvining kashfiyotchilari bizga ma'lum emas. Ammo ular mashhur fransuz olimi A. Meyenining so'zi bilan aytganda “ buyuk ingvistlar” bo'lganlar

Alfavit aslida alifbo so'zidan ya'ni alif va bo (arab tilidagi birinchi harfdan olingan. Alfavit miloddan avvalgi 2000 – yil oxirlarida qdimgi Ugarit va finkiy yozuvi tovush tizimidan kelib chiqqan. Undan ilgari Misr yozuvlari sanoq tizimi mavjud bo'lgan deb taxmin qilindi. Turkiy xalqlarning run va turkiy yozuvlari bo'lgan.

Ammo bu o'ziga xos tirkiy yozuvlar alfaviti haqida ma'lumot uchramaydi. Hozirda harfiy va bo'g'in alfaviti finikiy, oromiy, yunon alfavitidan kelib chiqqan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Yozuv nima? U qachon paydo bo'lgan?
2. Yozuv qanday imkoniyatlarga ega?
3. Yozuvning dastlabki shakllari qanday holatlarda qayd qilingan?
4. Frazieografiya nima?
5. Qadimgi shartli alomatlar haqida gapirib bering.
6. Yozuvning tilga nisbatan qanday kamchiliklari mavjud ?

7. Logografik yozuvining piktografik yozuvdan farqli tomonlari ?
8. Hozirgi vaqtda qadimgi yozuvlardan ham foydalanamizmi?
9. Bo'g'in yozuvi dastlab qaerda paydo bo'lgan?
10. Lotin yozuvi qachondan boshlab keng amaliyotga tatbiq etildi?
11. "Muqaddas yozuv" deb qanday yozuvni aytishadi?
12. Sillabografik yozuvning xususiyatlarini sharhlab bering.
13. Alfavit nima? U qanday tuzilishiga ega?

MAVZU: QADIMIY XALQLAR VA ULARNING YOZUVLARI

REJA:

1. Fonografik yozuvning taraqqiyot yo'li.
2. Jahon xalqlarining asosiy yozuvlari.
3. Sug'd yozuvi va uning yodgorliklari.

Tayanch iboralar: Finkiy yozuv, katibalar, bo'g'in va undosh yozuvi oromiy yozuv, Bar – xadod va Zokir katibalari, nabatiy va palmir yozuvi, Jamshid taxti, so'g'd yozuvi, ligaturalar, " sutra yozuvi " siniq suh'd yozuvi, uyguriy yozuv, mimizmatik materiallar, Mig' tog'I sug'dhujatlari, mig'd tog'I sug'd arxiviy, paleografiyik tadqiqotlar, yunon yozuvi Avesto yozuvi Avesto kitobi, pahlaviy yozuv, lotin yozuvi.

Adabiyotlar: 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14, 15.

Finkiy yozuv. Ushbu yozuvdan finkiylar, karfagenlar qadimiy yahudiylar tomonidan finikiya, Suriya, Falastin va qisman Misr , Kipr, Kiliniya(kichik osiyodagi viloyat), Karfagen kabi qadimiy davlatlar foydalanganlar. Finikiy yozuvga daxldor katibalar miloddan avvalgi 2- 4 ming yilliklarga taalluqlidir. Bu yozuvning paydo bo'lishi sarchashmasi haligacha aniq emas. Taxmin qilishlaricha finikiy yozuv qadimiy Qan'onning bo'g'in va undosh yozuvi asosida vujudga kelgan. Finikiyyozuvda 22 ta undsh harf mavjud edi . Keyinchalik qattiq unlilar uchun maxsus alomatlar ishlab chiqildi. Keyinchalik qariyb hamma harfi va ovozli xatlar sistemasi, jumladan yozuvlarning ikki katta bo'g'ini - yunon va yozuvlar ham finikiy yozuvidan ibtido oldi.

Oromiy yozuv. Ushbu yozuv undosh tovushlardan iborat bo'lib, 22 ta harfi bor edi. Miloddan oldingi birinchi ming yillikning avvallarida finikiy yozuv zaminida vujudga keldi. Oromiy yozuvning qadimiy osori Bar – Xadod(shimoliy Suriya) va Zokir (Xamodan) katibalardir. Keyinchalik oromiy yozuvni boshqa somiy xalqlar, yahudiylar, oshriylar, bobiliylar qabul qildilar. Miloddan avvalgi 3- 2 asrlarda ushbu yozuv bir necha shoxaga - yahudiy yozuvning murabba xili palmir va nabatiy yozuvlariga bo'lindi.

Mazkur yozuv Baynannahrga mixsimon bobil va akkad yozuvlari o'rnini egalladi.

Haxomanishiylar davlati (imperiyasi) davrida ham oromiy yozuvi qadimiy fors yozuvi bilan baravar qo'llangan. Jamshid taxtidan 500 taga yaqin oromiy katibalar yozilgan loy taxtachalar topilgan. O'rta eroniy yozuvlarning aksariyati- pahlaviy, forsiy, so'g'diy, monaviy, xorazmiy yozuvlari oromiy xatdanpaydo bo'gan.

So'g'd yozuvi. Bu yozuv oromiy yozuv asosida eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda qadimiy So'g'd zaminida yaratilgan. U 23 alomatni o'z ichiga olar edi. So'g'd yozuviga mansub birinchi yozma yodgorlik eramizdan oldingi I asrga taalluqlidir.

So'g'd yozuvining alomatlarini birinchi bor frnsuz olimi R. Goto fransliteratsiya qilgan edi.

So'g'd yozuvida avvallari bir – biriga ulangan harflar (ligaturalar) juda kam bo'lgan. Har bir harf o'zining alohida yozma shakliga ega bo'lib, ularni bemalol bir- biridan farq qilishi mumkin edi.

VI –asrning boshlarida „sutra yozuvi“ nomukammal finik so'g'd yozuvi taraqqiy etdi va X asrda keng qo'llanildi. Bu yozuv bilan budda dinining yozma yodgorliklari yozilgan. Mukammal finik so'g'd yozuvi sakkizinchi asr o'rtalarida vujudga keldi. Bu yozuv bilan Mug' tog' Afrosiyob va panjakent katibalari yozilgan Siniq so'g'd yozuvida ulangan harflar ko'proq ishlatilgan va alomatlarni bir – biridan farqlash ancha qiyin bo'lgan.

Mutaaxir siniq so'g'd yozuvi (bu yozuvni “uyg'uriy so'g'd “ yo “ uyg'uriy” ham deganlar) IX - XI asrlarda taraqqiy etgan. Uyg'uriy yozuvida harflarni bir- biridan farq qilishi uchun dlakritik alomatlarni ishlatish kotiblar ixtiyorida edi.

Bu umumso'g'd yozuvlaridan tashqari yana ikki xil so'g'd yozuvi taraqqiy etgan edi. Bularning bittasiga Buxoriy va ikkinchisiga istaravshaniy nomini berish mumkin.

Miloddan avvalgi II – III asrlarda shakllangan so'g'd yozuvi ulkamiz madaniyati tarixida muhim rol o'ynaganini isbotlovchi dalillar juda ko'p topilgan. Dalillarning guvohlik berishicha bu yozuv ijtimoiy va madaniy hayotning hamma sohalarida keng qo'llangan. Shu murakkab jarayonda so'g'd yozuvining tashqi shakli takomillasha brogan hamda ichki mazmuni - til tovush sistemasi tobora aniq ifodalanishi tomon o'say brogan, muyyan orfografik normalar vujudga kela boshlagan.

Bu qadimiy so'g'd yozuvi orqali eramizning boshlaridan to X – XI asrlarga qadar yozilgan ko'plab noyob yodgorliklar bizgacha yetib kelgan. Bu yodgorliklar orasida ko'plab nimizmatik materiallar (tanga yozuvlari) metall, spool, yog'och, charm, qog'oz va boshqa buyumlarga bitilgan matnlar, shaxsiy maktublar, diniy, axloqiy falsafiy matnlarning parchalari, xo'jalik huquqiy va diplomatoik hujjatlar mavjud.

Shunday noyob yodgorliklarning katta guruhi Panjakent yaqinidagi mug' tog'I tepasidagi qadimgi qasr xarobalaridan tipilgan so'g'd hujjatlaridir.

Mazkur yodgorlik majmuasi “Mug’ tog’I so’g’d tarixi” deb nomlangan va o’z ichiga VII asr oxiri VIII asr boshlarida oid ga yaqin noob hujjatlarni qamrab oladi. Bu hujjatlar so’g’d podsholigida tobe Panj hokimiligi saroyi hamda turli viloyat hokimligi va ayonlariga tegishli hujjatlar yig’indisidan iborat.

Arab istilosi kunlarida , xususan,

722 – yilda Panj hokimi, bir muddat So’g’d podshosi taxtiga da’vogar sifatida ish ko’rgan Devashtich boshliq guruh mug’ tog’I joylashgan mudofaa qasrga chekingan. Shu sababli saroy hujjatlari qasrga keltirilgan. Tarix kitobisahifalaridan ayonki 722 yili arablar qasrni bosib olib, vayron qildilar.

Mug’ qasri xarobalarida qolib ketgan so’g’d arxivi oradan 1210 yil o’tgach, 1932- 1933 yillarda topilgan. Bu hujjatlar shu vaqt davomida ancha o’rganildi, barcha matnlarning izohli nashrlari e’lon qilinmoqda va ularning til xususiyatlari o’rganilmoqda. Qadimgi so’g’d yozuvi bo’yicha paleografik tadqiqotlar bajrilmoqda. Bir turkum so’g’d hijjatlarining o’zbek tiliga tarjimasi va izohlri 1992 –yil Mirsodiq Is’hoqov tomonidan nashr etildi.

Yunon yozuvi: Bu yozuvdan qadimgi yunonliklar miloddan avvalgi X- VIII asrlarda foydalanganlar. Ayni damda u hozirgi yunon tilida ham ba’zi bir tadqiqotlar bilan foydalanildi. Finkiy yozuvdan paydo bo’lgan yunoniklar finkiy yozuvni o’z tillariga mohirlik bilan tadbiq etdilar. Yozuv tarixida birinchi bor unlilar uchun alohida harflar joriy qildilar va undoshlar uchun bir necha harf ilova qildilar. Finikiylar rostdan chapga qarab yozardilar. Yunonliklar ham avval shu usulni qo’llagan. Keyinchalik bir qatorni o’ngdan chapga , ikkinchi qatorni chapdan unga qarab yoza boshladilar. Miloddan oldingi VII – VI asrlardan boshlab chapdan unga qarab yozishni joriy qildilar. Yunon alifbosi 24 harfdan iborat bo’lib, jahonning ko’pgina tillari alifbosi, jumladan lotin, slaviyan, arman, gruzin, got tillarning alifbosi o’z asosini yunon alifbosidan oldi.

Avesto yozuvi: (Zand yozuvi ham deyiladi) III- IV asrlarda pahlaviy yozuvi asosida ixtro qilingan va Avesto kitobini yozish uchun qo’llangan. Unda 48 ta harf va 3 ligatura (birlashgan harflar) mavjud edi. Ushbu yozuv Avestoni bexato va to’g’ri o’qish uchun ixtro qilingan. Avesto yozuvi sosoniylar zamonida “ din – dabura”, ya’ni diniy matnlarni zabt etish uchun yaratilgan yozuv nomi bilan yuritilgan.

Pahlaviy yozuv: III asrda oromiy yozuv asosida yaratilgan. Pahlaviy tilning qadimiy kotibalari shu yozuvda bitilgan . Ushbu yozuv 22 alomatdan iborat edi. Keyinchalik tez yozish (kursiv) usuli qo’llanilgach alomatlar miqdori 14 – 15 ta bo’ldi. Pahlaviy yozuvda faqat uzun unlilar o’z alomatiga ega edi. Ushbu yozuv o’ngdan chapga qarab yozilar edi.

Lotin yozuvi: Eramizdan avvalgi 403 –yildan boshlab Afinada klassik grek alfaviti qo’llana boshlandi. Ushbu alfavitda hammasi bo’lib 24 ta harf bo’lib undan 7 taasi unli, qolganlari undosh tovushlarni ifoda etgan. Glarbiy grek yozuvi asosida lotin yozuvi raydo bo’lgan bo’lsa, sharqiy grek yozuvi asosida kirillitsa, gruziya va arman alfavitlari yaratilgan,

Ko’p o’tmay lotin yozuvi G’arbiy Yevropada keng tarqala boshladi. XIV asrga kelib qog’oz yaratiladi va kitob nashri yo’lga qo’yildi, Hozirgi zamon

yozuvlaridan 70 tasi (bundan 30 tasi Yevropa, 20 tasi Osiyo, 20 tasi Afrikada yashovchi xalqlarga taalluqli) lotin yozuvga asoslangan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Fonografik yozuvning taraqqiyot bosqichlari haqida gapirib bering.
2. Jahonda qanday yozuvlar keng tarqalgan? Buning sababi nimada deb o'ylaysiz?
3. So'g'd yozuvi haqida nimani bilasiz?
4. Mug' tog'I so'g'd yozuvi haqida gapirib bering.
5. Qaysi xalqlar yozuvi lotin yozuvi asosida ixtro qilingan?
6. Lotin yozuvi keng tarqalishiga nima sabab deb o'ylaysiz?
7. O'zbekistonliklar qanday yozuvlardan foydalanishgan?

Mavzu: O'rta osiyoda xattotlik san'ati.

Reja:

1. Hattotlik san'ati tarixiga nazar.
2. Arab yozuvi va hattotlik san'ati.
3. Xushnavislik va uning qonuniyatlari.

Tayanch iboralar: Kaligrafiya, xat, yozuv, xattot, xattotlik, qalam, qilqalam, kitob, chiroyli va to'g'ri yozish san'ati, kitob ko'cherish kasbi, kitobat, arab yozuvi, matbaachilik, nusxa ko'cherish, xattotlik tamoyillari, oltilik silsilasi (suls, nasx, muhaqqaq, rayhon, tavqe', riqo), xushnavislik, uchburchak, kvadrat va beshburchak, Sultonali Mashhadiy, „Odob ul – mashq“ nazariy va qalamiy usul, kufiy xati, xati sitta, munshaot, tug'ro xati, nastaliq xati, xattotlar sultoni.

Adabiyotlar: 8, 10, 11, 12, 13, 15, 20

Xattotlik (kaligrafiya) - chiroyli va to'g'ri yozish san'ati, kitob ko'cherish kasbidir. Bu san'at O'rta Osiyoda qadimdan rivoj topgan. Xattotlik tarixi yozuv taraqqiyoti va kitobatning asosiy silohi qalam (nayqalam) bilan chambarchas bog'liqdir. Yozuv va qalam paydo bo'lgandan keyin maxsus kishilar xattotlik bilan shug'ullana boshlaganlar. Ayniqsa, arab yozuvi tarqalgandan keyin xattotlik keng rivoj topgan

Matbaachilik vujudga kelgunga qadar kitob tayyorlash ularning nusxasini ko'paytirish ishi bilan xattot shug'ullanganlar. Saroylarda ayrim amaldorlar huzurida xattotlar jamoalari tashkil etilgan. Masalan, Mirzo Boysung'ur o'z saroyida 40 hattotdan iborat guruhni to'plagan edi. Shunday hattotlardan biri Sultonali Mashhadiy bo'lib, u 1432 – yilda tug'ilib, 1520 yilda to'g'ilib 1520 – yilda vafot etgan. U “qiblatul kuttob” (kitoblar qiblasi) va “sultonul –xattot-ayn”(xattotlar sultoni) kabifaxriy laqablar bilan mashhur bo'lgan. Unga shoirkik zavqi ham begona bo'magan. Quyidagi parcha uning qalamiga mansubdir:

Az javony ba hatbo'dy maylam,
Ishki hat rondiaz mija saylam.
Bar sari ko'y kam kadam zadamyey,
To tavonistan kalan zadamyey.
Ro'z to shom mashk myekardam,
Na gami hob bo'dy na ho'rdam, (3).

(Mazmuni:

Yoshlikdan xatga maylim bor edi uning ishqiy ko'rimdan uyquni qochirar edi. Bekordan bekorga ko'p yurmasdan qo'limgaqalam olardim Ertalabdan kechgacha mashq qilar edim shuning uchun minga na yotish va na yeyishning g'amibar edi).

Sultonali Mashhadiy 1461 –yil Nizomiyni “Maxzanul - asror” masnaviysi, 1464–yil Hofizning devoni, 1465-1466-yillar esa Alisher Navoiyni q'azaliyot devonini kitobat qilib, shuhrat topdi. Keyinchalik Navoiyni taklifi Mashhaddan Hirotga kelib, Husayn Bayqaro kutubxonasida hattotlarga boshchilik qilgan. Hozirga qadar u oqqa ko'chirgan 50 ta asar bizgacha yetib kelgan.

Sultonali Mashhadiyni faoliyati borasida Hazrat Navoiy „Majolisun-nafois” da, Qozi Ahmad va Som Mirzolar o'zlarining tazkiralarida ma'lumot berib o'tganlar.

Yaxshi chiroyli yozishdan maqsad faqat oson o'qishdan emas, balki o'quvchiga estetik zavq bag'ishlash, yozuvni maleh bade' qilishdir.

Ta'kidlaganimizdek, xattotlik san'ati yaqin sharq xalqlari o'rtasida arab yozuvi asosida keng tarqaldi. Arab yozuvining oltilik silsilasi - suls, nasx, muhaqqaq, rayhon, tavqe' va riqo' yozuvlari arab hattotlik san'atiga asos soldi. Hattotlik usuli yozuv turiga bog'liqdir. Hattotlik o'z nazariy va amaliy qonunlariga bo'g'liq ediki, xushnavislar bunga qat'iy rioya etar edilar. Hattotlik nazariyasiga X- XI asr mashhur hattotlari Abu Ali Muhammad (Ibn Musla) All Ibni Hilol(Ibni Bavvob) asos solganlar. Ular an'anasini Yoqut Mustasimiy nazariy jihatdan rivojlantirdi. Hattotlik san'ati ta'kidlaganimizdekmuayyan qonun va talablarga asoslangan va bu talablar matematik aniqlikni talab qilar edi. Oltilik sistemaga asoslangan hattotlik san'ati me'or sifatida doira shaklini tanlar edi. Bu doira ichida tomonlari barobar uchburchak , kvadrat va besh burchak chizilib unda harflar andozasi muayyan qilingan . Har bir harf uchun romb shaklidagi yuqoridan pastga qarab qo'yilgan nuqtalar ishlatilar edi. Yozuv turlariga qarab nuqtalar miqdori o'zgartirilgan. Masalan muhaqqq yozuvi uchun sakkiz no'ta , suls yozuvi uchun yeti va tavqe' yozuvi uchun olti no'qta muqarrar qilingan edi.

Arab yozuviga ko'ra doira ichidagi uchburchak, kvadrat va beshburchak shakllarida foydalangan.Dol, qot, mim va vov harflarini yozishda uchburchakdan foydalansalar, jim harfining boshi va shunga o'xshashharflarni yozishda beshburchak andoza sifatida xizmat qilgan. Ba'zan murakkab sistema o'rniga oddiy usul - nuqtalar hisobi qo'llangan. Masalan, suls yozuvida alif harfiga yetti nuqtaga , muhaqqaqyozuvida sakkiz nuqtaga, tavqeyozuvida 10,5 muhaqqaq va tavqe' yozuvlaida to'qqiz nuqta hajmida belgilangan va yozilgan.

Xattotlik san'atini rivojlantirishda Ibn Muqta, Ibni Tavvob va Yoqub Mustasiniy bilan qatorda XV asrning mashhur xushnavisi Sultonali Mashhadiyning ham xizmatlari kattadir. Uning „**Odob ul- mashq**”risolasida birinchi bor chiroyli yozuvga o'rgatishning ikki usuli - nazariy va qalamiy usullari bayon etilgan. Nazariy usul o'tgan ustozlar yozuvini o'rganish va

mushohada etishni taqozo etsa, qalamiy usul- chiroyli nusxaga qarab payvasta mashq qilishni talab etadi.

Xushnavislar aksaran ikki tarzda jalliy va xafiy tarzda yozardilar. Odatatan xafiy mashqi kunduzi, jalliy mashqi kechasi amalga oshirilar edi. Chunki xafiy xati kichik yozilsa, jalliy yozuvi katta - katta yozilar edi. Ko'pgina kitoblarning hoshiyalarida xafiy xatida kitobat qilingan yozuvlarni ko'ramiz. O'rta asrlarda har bir xushnavis hech bo'lmaganda uch xil yozuvda -sils, nasx, nastaliq yozuvlarida mashq qilib bilar edi. Aksariyat oltilik va nastaliq yozuvda juda yaxshi va chiroyli yozar edi. Xushnavislarning asosiy qurollari siyoh, rangli jo'shalar, oq va rangli qog'oz, nayqalam, qalamtarosh, mistar, qalamdon, siyohdon, mehrak va qalamqat edi. Sultonali Mashhadiyning „Risolai xat“ Mirali Hiraviyning „Mirod ul -xutut“ Mirimodi Qazviyning „Odob ul -mashq“ Majnun ibn Kamoliddin Mahmudi Rafiqiyning „Risolaixati manzum“ Shafiyoniyning „Risolaixat“ Fathulloh Ahmad ibn Muhammadning „Risola dar usul va qavoidi xututi sitta“ kabi risolalarida siyoni tayyorlash texnologiyasi, nayqalam qog'ozning sifatini bilish usullari, umuman yozish qurollari borsida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Xushnavislikka ma'lum va joriy bo'lgan qoidalar o'n ikkilik qoidasi debnomlanar va bilar : sul, tarkib, kursi, suud, nuzul, nisbat, davr, sath, quvvat, za'f, safo va nishon edi.

VII asrda arab yozuvining keng tarqalgan uslublaridan biri kufiy xati ixtiro qilguncha (ixtirochisi Yarab ibn Kahton) O'rta osiyoda turli yozuv usullari mavjud bo'lgan. Masalan, makkiy, madaniy, basariy va boshqalar. Bu xatlardan oldinroq ma'qaliy (tik chiziqli) yozuvi mavjud edi. Kufiy yozuvi ko'pincha madaniy yodgorliklarning naqshlarida saqlanib qolgan. Xalifa muqtadir zamonida yashagan olim Ibn Muqla' (864 – 934) ni xatti sitta (okti Xil yozuv: suls, nasx, muhaqqaq, rayhoniyy, tavqe', riqo) ixtirochisi deb tan olganlar.

Vaqt o'tishi bilan kufiy yozuvining turli variantlari ixtro qilingan. Qur'oni Karimning ilk namunalari shu yozuvda yozilgan. Zamonlar o'tishi bilan hattotlar bu yozuvni ham binolarning bezaklarida ishlatganlar. Muhaqqaq yozuvi kufiyning biroz o'zgartirilgan shaklidir. Rayhoniy uslubi muhaqqaq uslubi o'xshagan, lekin harf shaklan rayhon barglariga o'xshagani uchun shu nomga loyiq topilgan. **Nasx** yozuvi kufiy va muhaqqaq xatlaridan ko'ra Qur'on ko'chirishda ma'qulroq topilgan. **Tavqe'** yozuvi esa asosan buyruq va farmonlar yozishda qo'llangan. **Riqo** yozuvi tavqe'ga ancha yaqin. Lekin undan nozikroq. Asosan munshaot (**maktub** yozishda) da ishlatilgani va qog'ozlarga nafis qilib yozilgani uchun riqo deb atalgan. Mazkur yozuvlardan tashqari nomor g'ubor, shajariy, tug'ro va boshqa xat turlari ham bo'lgan. Tug'ro imzo qoyilganda ishlatilgan.

XV asr boshlaridan kitob ko'chirishda (fors – tojik va eski o'zbek tillarida) nastaliq xati rasm bo'ldi. Hazrat Alisher Navoiy ta'biricha xattotlar sultoni bo'lgan Sultonali Mashhadiy **nastaliq** xatini ajoyib san'at darajasiga ko'targan ekan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Xattot so'zi qanday ma'noni anglatadi?
2. Xattotlik kasbi yoki san'at?
3. Kitob ko'cherish kasbi haqida nimalarni bilasiz?
4. Xattotlik san'atining arab yozuviga qanday aloqasi bor?
5. Nega Mirzo Boysung'ur o'z saroyida 40 ta xattotni to'plagan edi?
6. Qanday mashhur xushnavislarni bilasiz?
7. Xushnavislar qanday nazariy va amaliy qoidalariga amal qilganlar?
8. Hattotlik san'atiga oid qanday kitoblar yaratilgan?
9. Hazrat Alisher Navoiy kimni „hattotlar sultoni“ deb aytgan edi? U haqda nimalarni bilasiz?

10. Nozirgi vaqtda ham hattotlar bormi?

Mavzu: Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi tarixi

Reja:

1. Jahon madaniyati taraqqiyotida lotin imlosining o'rni.
2. Milliy uyg'onish davri va yangi alifboni isloh qilish.
3. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosining yaratilishi.
4. Mutaqillik davrida yangi o'zbek imlosi.

Tayanch iboralar: Lotin yozuvi, o'zbek alifbosi, arab alifbosi, isloh qilish, „Milliy uyg'onish davri“, Turkcha qoida“, „Imlo“ , „Yangi imlochilar“, Chig'atoy guruhi“, „Eski imlochilar“, „O'rta imlochilar“, „Lotinchilar“, „Turkshunoslar“ , „Sharqda inqilob“, „Yangi imlo qoidalari“ (1995- yil 24. 08) harf birikmasi, nutq tovushlari.

Adabiyotlar: 8, 9, 10, 12, 14, 17, 18.

Turkiy xalqlarning qadim – qadimdan o'z yozuvlari bo'lgan va hozir ham bor.

Jahondagi 220 xil yozuvining tarqalish hududi va ulardan foydalanuvchilar soni har xil. Keng tarqalgan yozuvlardan biri o'lik lotin tilining yozuvi, ya'ni lotin yozuvi bo'lib, bizning davrimizda jahon xalqlarining 30 foizdan ziyodi o'z fikrini ana shu yozuv asosida yaratilgan alifboda bayon qiladi.

Yangi mustaqil Respublikamizning har tomonlama kamol topishi va jahon kommunikatsiya tizimiga kirishini jadallashtiruvchi qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi(1). O'zbekiston respublikasida lotin yozuvi asosidagi yangi alifboga o'tish fikri 1921 yildan paydo bo'lgan. Bunda Mahmud Hodiyev- Botu kabi ziyolilar tashabbuskor bo'lganlar. Ular lotin va lotin –rus

yozuvlari asosidagi o'zbek alifbosini tuzganlar va ilmiy jamoatchilik muhokamasida qo'yganlar.

Bizning hududimizda arab alifbosi VIII asrning 20 –yillaridan XX asrning 30 yillarigacha qo'llangan. „ Milliy uyg'onish” davrida arab imlosi va alifbosiga ayrim islohlarni kiritish boshlangan. Ammo bu masalani rasmiy ravishda hal qilish 1917 –yilgi to'ntarilishdan so'ng bo'lgan. Arab alifbosini isloh qilish jarayonida bu alifbodan voz kechib, lotin alifbosiga o'tish masalasi ham o'rta qo'yilgan.

1917 – yil oktabr to'ntarishdan so'ng mahalliy tillar ularning imlosiga rasmiy ravishda e'tabor berila boshlangan. Ayniqsa 1919 – yil 26 dekabrda rusiya Respublikasida savodsizlikni tugatish to'g'risida Dekret chiqqandan so'ng Qo'shma Sho'rolarining Turkiston Muxtor Jumhuriyatidagi ham alifbo va imlo masalalarni tezroq hal qilish o'rta qo'yilganchunki imlo va harflar shakli masalalarni hal qilmay turib, ko'pchilik xalqni savodxon qilib bo'lmas edi.

Turkiston jumhuriyati Xalq Maorifi Komissarligi o'zbek maorifchilarning 1918 – yil avgustda bo'lib o'tgan birinchi qurultoyida arabcha harflarni isloh qilish yuzasidan quyidagi qarorga kelib harflarning ikki xil shaklda, ya'ni alohida yozilish shakli hamda so'z boshida yozilish shakligina bo'lishi lozim.

1921 –yilgi til va imlo qurultoyi. Turkiston Xalq Maorifi Komissarligining tashabbusi bilan 1921 –yilning yanvar oyi boshida Toshkentda o'zbek tili va imlosi yuzasidan Turkiston Muxtor Jumhuriyati qurultoyi o'tkaziladi. Bu anjumanda va imlo masalasi yuzasidan ma'ruza qilgan Fitrat o'z so'zini: „ Maorifimizni eski imlo va yozuv bilan kengaytmak va savodsizlikni isloh etmak lozimdir” - degan chaqiriq bilan yakunlagan.

Turiston maorifchilarning yig'inida ma'ruza ham qilgan. Ilmiy jamoatchilik bu urinishga o'z munosabatini bildirmagan.

Shuni qayd qilish kerakki, 1921 – yil yanvargacha „Yangi imlochilar” bilan (Chigʻatoy gurunggi” qatnashchilari). „Eski imlochilar”, „Oʻrta imlochilar” oʻrtasida ilmiy bahs – kurash boʻlgan edi, 1921 –yilgi qurultoydan soʻng „Lotinchilar”, yaʼni lotin yozuvi asosidagi oʻzbek alifbosini yaratuvchilar (Mahmud Hodiyev – Botu rahbarligida) paydo boʻldilar, bular ham kurashga qoʻshildilar. 1923 – yil 3-9 oktabrda Oʻrta Osiyo oʻzbeklari yozuvi va imlosini isloh qilish yuzasidan Buxoro alifbo imlo konferensiyasi boʻlib oʻtadi.

1924 – yilning 11- aprelida Turkiston Maorif Komissarligida boʻlgan majlisda Moskvadan Komissarlikka yuborilgan yangi tuzilgan lotin alifbosi loyihasi mutaxassislar bilan muhoama qilinadi.

Demak , arab alifbosidan lotin alifbosiga oʻtishda Oʻzbekistonda ham, markazda ham tayyorgarlik ishlari olib borilgan.

Ozarbayjon hukumati va tilshunoslari sobiq ittifoqdagi turkshunoslarning 1- qurultoyini 1926 –yil 26 fevraldan Boku shahrida oʻtkazish tashabbusi bilan chiqqanlar.

Bu qurultoyga tayyorgarlik koʻrish maqsadi Oʻzbekiston Xalq Maorif Komissarligim\ning Ilmiy markazi huzuridagi oʻzbeklarni oʻrganish qumitasi 1925 –yil 29 – 30 noyabr kunlari Samarqandda til mutaxassislari hamda oʻzbekshunoslarninh kengashi oʻtkazildi.

(Maʼruzachilarning familiyasini qavs ichiga koʻrsatdik). Til va istiloh (Gʻozi OLim Yunusov, E. D. Poivanov), imlo va harf (E. D. Polivanov). Alisher Navoiy yubileyi toʻgʻrisida (Vadud Mahmudov). Boku qurultoyiga vakil koʻrsatish.

Bu kengashda imlo alifbo toʻgʻrisida quyidagi qaror qabul qilingan:„Bugun ishlatilmoqda boʻlgan imloni yetishmasliklariga qaramasdan aytish mumkinki” koʻp imlolardan mukammaldir. Bu imlo yetishmasliklarini bir imlo kengashi yigʻish bilan toʻlditirish mumkindir. Shuninf\g uchun - da boshqadan bir lotin harf va imlo masalasi korsatish ortiqchadir”. Bu qarorni sharhlashga zaruriyat yoʻqdir.

1926 – yilning 26 –fevralidan Bokuda sobiq ittifoqdagi turkshunoslarning birinchi qurultoyi ish boshladi. Bu qurultoyda 150 mutaxassis ishtirok etgan. Ozbekistondagi Rahim In`omov (Maorif Komissari), Nazir Turaqulov (ma`ruza qilgan), Ashurali Zohiriy , Shokitjon Rahimiy, Bekjon Rahmon rasmiy vakili sifatida qatnashganlar. Markazdan prof. L. V. Shcherbak va Yakovlevishtirok etganlar. Turkiyadan mehmon tarzida Kuprilizoda Mehmed Fiod hamda Alibek Husaynzoda qatnashgan. Boku qurultoyida bir necha ilmiy masalalar qatorida harf va imlo masalasiga keng o`rin berilgan. Arab alifbosidan lotin yozuvi asosida gi yangi alifboga o`tish masalasi keng muhokama qilingan. O`zbekistondan qatnashgan vakillar o`rtaga qo`yilgan masalani yakdillik bilan bilaan ma`qullaganlar. Turkiyadagi Istanbul dorulfununi mudarissi Kirgilizoda Mehmed Fiod arab yozuvidan voz kechib lotin yozuviga o`tishga jiddiy e`tiroz bildirgan. 1926 –yilda o`zi ishlaydigan dorulfununning to`plamida harf masalasi” nomli maqolasida „ Latin hrfleririn alinmasina karsi chikmisti”.

Qurultoyda xorazmlik Bekjon Rahmon o`g`li so`zga chiqib, bunday degan edi: „O`zbekiston Ozarbayjon hukumatini yangi turk alifbosini amaliy suratda vujudga chiqarish ishida ko`rgan muvaffaqiyatlari bilan qizg`in ravishda salomlaydir va usha bilan barobar, Ozbekiston davlati ichida yangi turk alifbosini amalga qo`yishga chora va tadbirlar ko`rishga so`z beradir”.

Bu qurultoyda sho`rolar hududi dagi turkiy xalqlar o`z yozuvlari uchun lotin alifbosini asos qilib olishlari to`g`risida tavsiya qabul qilingan.

O`zbekistonda Boku qurultoyidan keyin yangi alifboga o`tish yuzasidan qizg`in boshlangan. O`zbekiston Markaziy Ijroya Qo`mitasining 1926 – yil uyun oyida o`tgan 4 – sessiyasida o`zbek imlosini lotinlashtirish masalasi ko`rilib texnika jihatdan ko`p qulay bo`lgan lotin harflarini o`zbekchaga qabul qilish bilan o`zbek xalqini milliy va madaniy jihatdan yuksalishini e`tiborga oldi va lotin harflari asosidagi yangi alifboni qabul qilishni lozim topib, quyidagi qarorlarni chiqardi:

1. Markaziy Ijroqo'm sessiyasi bu masalani hayotga joriy qilish yuzasidan choralar ko'rishni Markaziy Ijroqo'mning hayati rayosatiga buyuradi.

2. Bu masalani ko'rib, ishlab chiqib uni amalga oshirish uchun Markaziy Ijroqo'm huzurida „Yangi o'zbek alifbo qo'mitasi“ tuzadir va bu qo'mitaga quyidagi o'rtqlar belgilanadilar; Oxunboboyev o'g'li(rais) q'zolari 13 nafar kishi, chunonchi: Rahim In'omov (o'rinbosar), Akmal Ikromov, Fayzulla Xo'jayev, Abdulla Qodiriy, Fitrat , Elbek (Mashriq Yunusov, Ashurali Zohiriy, Bekjon Rahmon , Orif Olimjon (kotib) v a boshqalar.

Keng jamoatchilikning fikri alifbe masalasiga jalb qilinadi. Lotin yozuvi asosidagi yangi o'zbek alifbosi loyuhasi bir necha marta qayta tuziladi va muhokama qilinadi.

1926 –yil 19 – 21 mayda lotin yozuviga asoslangan ozbek alifbosining birinchi tturi Samarqandda ilmiy anjumanda mutaxassislar bilan muhokama qilinadi.

Bu anjumanni Respublika Xalq maorifi Komissarligi uyushtirgan edi. Muhokama qatnashchilari yangi alifboda unlilar soni 12 ta bo'lishi to'g'risida qaror qabul qiladilar. Bu loyihani O'zbekiston Xalq Maorif Komissarligi qullaydi..

1926 yil 27 – 29 mayda o'zbek tiliga birinchi marta moslab tuzilgan lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosiga yo'g'onlik va ingichkalik hamda uzun va qisqalik hisobga olinib unli tovushlarni ifodalash uchun 12 belgi (harf) olinishi tavsiya qilingan edi.

1926- yil 27 – 29 avgustda ozbek alifbo qo'mitasi V Ilmiy Markaz mutaxassislarining ishtirokida konferinsiyasini chaqirdi. Bu konferensiyada may oyida ma'qullangan alifbo loyihasi bekor qilinib, yangi tuzilgan alifbo muhokama qilinadi. Bu alifboda unlilar 9 ta , undoshlar 23 ta harf bilan

ifodalanishga qaror qilindi. Muhokama qilingan alifbo loyihasi ma'qullandi. Unlilar soni 9 ta qilib belgilangan.

Bu kengashda alifboga tuzatishlar kiritish va imlo qoidalari tuzish topshirilgan. Bu ishlar sentabr oyida

o'tgan yig'ilishda hal qilingan. Shu bilan tarixda birinchi marta lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini tuzish masalasi asosan hal qilingan. Shu yili o'z davri saviyasida „Imlo qoidalari“ hozirlangan. Chunonchi, „imloda ikki usul qo'llanadi: savtiy(fonetik) ham sarfiy (morfologik) . Bizning tilimizda bir qancha shevalar bo'lganidan ta'lim tarbiya - ishlarida yengillik uchun har ikki usuldan ham foydalanishga qaror berdik.

So'zning tomiri (o'zak nazarda tutilgan) eshitilganda yoziladi, qo'shimchalar safiy usul bilan yoziladi. Bular haqida izohat va misollar qo'yida yozilgandir“. Bu qoidalarda ilmiy umumlashmalar juda oz bo'lib, fe'llarning zamonlari va ularning tuslanishi va imlosi berilgan ; Men boraman, sen borasan....

1928 – yil yanvarda Toshkent shahrida sobiq butunittifoq Yangi alifbo Markaziy qo'mitasining II plenumi bo'ldi. (Qo'mita 1927 - yil 11- mayda qilingan edi. Rais - Samad Og'amali o'g'li). Bunda O'zbekiston, Totoriston, Qirg'iziston, Abxaziya, Yoqutiston respublikalarida yangi alifbo yuzasidan qilinayotgan ishlar xususida hisobar tinglandi. Ozbekiston Xalq Maorifi Komissari Mannon Ramz „O'zbekistonda lotinlashtirish ishlari va kelgusi vazifalar“ mavzusida ma'ruza qildi.

Bu plenumda yangi alifboga o'tish yuzasidan tegishli ko'rsatmalar beriladi. Samad Og'amali : „ O'zbek yangi alifbosi o'zbek to'rig'iga yo'l ochg'uvsidir“, - deydi.

1928 – yil 11- martda O'zbekiston Yangi alifbo markaziy qo'mitasining 1- plenumi bo'ldi. Bunda yangi alifboni hayotga joriy qilish rejasi ko'rib chiqiladi, shu yili dekabr oyida II- plenum bo'lib o'tgan.

Maktablarga yangi alifboga o'tish 1927 – 1928 – o'quv yilidan boshlanib 1929 – 1930 – o'quv yilida tugallangan, davlat idoralarida 1928-1930 –yilda

o'tilgan Lotin alifbosini hayotga joriy qilish jarayonida unga ayrim to'ldirish va tuzatishlar kiritib borilgan. Chunonchi, 1926 – yil avgust oyida ma'qullangan alifboda bosh harflar umuman berilmagan edi. (Ehtimol, bu ish arab alifbosi an'anasi asosida ro'y bergan bo'lsa kerak). Alifbodagi bu kamchilik tuzatilib 1929 – yil 15 – mayda Samarqand shahrida adabiy til, imlo va atamalar yuzasidan o'tkazilgan konferensiyada amaldagi alifboda bosh harflar qo'shilgan. Bunday masalalar 1934 – yil imlo va adabiy til yuzasidan Toshkentda o'tkazilgan ilmiy konferensiyada ham ko'rilgan va qarorlar qabul qilingan.

1934 - yilgi konferensiyada „yo'g'onlik va ingichkalik“ tamoyilidan voz kechilgan. Bu bilan o'zbek imlosi tarixida yangi bosqich – davr boshlangan, ammo mazkur ilmiy anjumanda ham o'zbek tilida **o** lovcho va **a** lovchi mahalliy shevalar bor deb, adabiy tildagi o va a fonemalari uchun bir harf, ya'ni a qoldirgan natijada **bola** so'zi **bala**, **lola** - **lala**, **non** - **nan** shaklida yozila boshlangan. Mazkur konferensiya so'z ma'nosi o'zgaradigan holldagina harflar yozilgan., qoidalashtirilgan edi. Bunday harflar so'zlarning talaffuzida qiyinchiliklar tug'dirgan, savodxonlikka ta'sir ko'rsatgan, ta'lim - tarbiya ichida qo'shimcha qiyinchiliklar tug'dirgan.

Shuningdek, birdan ortiq bo'g'in so'zlarning birinchi bo'g'inida qisqa talaffuz qilinadigan **i** tovushini qiziq, qizil, bilan, biroq kabi so'zlarda yozmaslik haqida qaror qabul qilingan.

Shunday qilib, O'zbekistonda arab yozuvidan lotin harflariga asoslangan o'zbek alifbosiga o'tish ishi katta tayyorgarlik bilan 1930 – yilning 1-yarmida to'liq amalga oshirilgan. (Bu ishga o'z davrida e'tiroz bildirgan shaxslar ham bo'lgan).

Barcha shahar va qishloqlarga yangi alifboni o'rganish yuzasidan 50 soatga muljallangan kurslar tashkil qilingan. Xalqni savodga o'rgatish maqsadiga n maxsus jurnal - O'zbek yangi alifbe markaziy qo'mitasining fikr tarqatuvchisi „Alanga“ jurnali va „Qizil tamg'a“ gazetasi nashr qilingan. Mutaxassislardan Naim Said, Shokir Sulaymon, Abduraim

Yo'ldoshevlar tomonidan savodsizlikni bitirishga oid darslik varaqalar nashr qilingan. Mashhur kinorejissor Nabi G'aniyev „Lotinlashtirish“ filmini yaratgan. Bu kabi ishlar savodsizlikni tugatishda katta ahamiyat kasb etgan.

1920 – yillarda O'zbekistonda ham yangi alifboga o'tilishi „ Sharqda inqilob“ deb baholangan edi.

O'zbekiston Oliy Soveti sessiyasi 1940 – yil 8 –mayda amaldagi o'zbek yozuvi o'rnida kirill alifbosi asosidagi yangi alifboga o'tish to'g'risida qonun qabul qiladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilingandan so'ng (1991 – yil 31 – avgust) lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosi masalasi o'rtaga qo'yildi.

Rasmiy yozuvda qaysi alifbodan foydalanish bo'yicha erkin fikr bildirish gazeta va jurnallarda, turli yig'inlarda bir yarim yil davom etdi. Muhokamada ichidan tortib akademikkacha , dehqondan tortib adibgacha hamma - hamma o'z fikr – mulohazasini erkin bildiradi.

Bu masala O'zbekiston Oliy kengash sessiyasida ham muhokama qilinib, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini tuzish yuzasidan guruh tuzildi.

O'zbekiston Oliy kengashining 1993 – yilda o'tgan XII chaqiriq XII sessiyasida noib P. Qodirovning lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini tuzish yuzasidan olib borayotgan ishlar to'g'risida axborot tinglandi.

Shu yil 16 - avgustda Toshkent shahrida o'zbek yozuvi istiqboliga bag'ishlangan respublika ilmiy - amaliy konferensiyasi bo'ldi. Bunda P. Qodirov, Hojiyev, I. Qo'chqortoyev, N. Mahmudovlarning ma'ruzalari tinglandi. Ma'ruzalar yuzasidan O. Yoqubov, Jamol Kamol, Abdulla Oripov , Sobir Kamol, Izzat Sultonov, H. Ne'matov Y. Abdullayev, S. Otamirzayeva va boshqalarning fikr mulohazalari eshitildi. Konferensiya yakunida lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosi asosan ma'qullanib, 4 moddadan iborat qaror qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993 – yil 2- 3 – sentabrdagi XII chaqiriq XIII sessiyasida yangi alifbo masalasi muhokama qilinib, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga o'tish to'g'risida qonun qabul

qilindi. „Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga kiritish tartibi haqida “ gi qarori matbuotda berildi.

Mazkur qarorga binoan, yangi o'zbek alifbosini joriy etish bo'yicha respublika davlat komissiyasi tashkil qilindi; yangi alifbo asosidagi o'zbek tilining asosiyimlo qoidalarini ishlab chiquvchi ishchi guruh tuzildi va 1993 – yilning dekabr oyidan ish boshladi.

„ O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari”ni hozirlash jarayonida alifbodagi ayrim harflarning shakli yuzasidan fikr - mulohazalar paydo bo'ldi. Bundan tashqari, yozuv jarayonida texnika vositalaridan kengroq foydalanish, harflar shaklini jahondagi taraqqiy etgan davlatlar alifbolariga yaqinlashtirish muammolari ham qo'yildi.

Bu muhim masalalarga ijobiy yondashish uchun alifbodagi harflarning shaklini isloh qilish zarur bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisida (1995 – yil 6 – may) mazkur masalalar yuzasidan axborot eshitildi. Qonun chiqdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi „Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida” gi Oliy kengash qaroriga o'zgartishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qildi.

Bu hujjatlarga o'zbek alifbosi 26 harf, 3 ta harflar birikmasidan iborat ekanligi, ayrim harflarning shakliga isloh kiritilganligi ko'rsatilgan; umumiy ta'lim maktablarida yangi alifbo asosida ishlash 1995 - yil sentabrdan emas, 1996 –yil sentabrdan 1 – sinflarda boshlanishi yangi yangi alifboga to'liq utilishi, 2005 yilda tugallanishi qayd qilingan.

O'zbek tilidagi 3 xil nutq tovushi (sh, ch, ng) harflar birikmasi bilan quyidagicha ifodalanadi:

-sh harf birikmasi sholi, o'qish kabi so'zlarda **sh** tovushi (sholi, o'qish);

-ch harf birikmasi cho'l, ishonch kabi so'zlarda ch tovushini (cho'l, ishonch);

- **ng** harf birikmasi ong, tenglik kabi soʻzlardagi til orqa ovozdor burun tovushini ifodalash uchun yoziladi (ong, tenglik). Bu tovush amaldagi alifboda 1940 – yil 8 –mayda harf birikmasi – ng bilan ifodalanishi qabul qilingan edi.

Demak, harf birikmasi bilan ifodalangandan nutq tovushlari oʻzbek tilida ikki harfni yonma – yon keltirish bilan koʻrsatiladi.

„Ozbek tilining asosiy imlo qoidalari” loyihasining birinchi turi respublika ziyolilarining Toshkentda 1994 –yil 16 apreldagi yigʻinida muhokama qilindi. (Lotin yozuvida asoslangan oʻzbek alifbosini joriy etish boʻyicha respublika davlat komissiyasining raisi oʻrinbosari, Oʻzbekiston Xalq taʼlimi vaziri j. G. Yoʻldoshev raisligida oʻtdi.) Oʻzbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995 -yil 24 -avgustdagi 339 – son qarorti bilan „Ozbek tilining asosiy imlo qoidalari”ni tasdiqladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Butunjahon madaniyati taraqqiyotida yozuv qanday oʻrin tutadi?
2. „Milliy uygʻonish” davri haqida nimalarni bilasiz?
3. Arab alifbosini isloh qilish harakati qachon boshlangan? Nega arab alifbosidan yuz oʻgirildi?
4. Oʻzbek yozuvini yaratishda ziyolilarning xizmati nimada deb oʻylaysiz?
5. 1921 – yilgi til va imlo qurultoyi haqida gapirib bering
6. Lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosini yaratish yoʻlida qanday harakatlar qilingan?
7. Boku qurultoyi (1926 – yil 26 fevral) haqida gapirib bering.
8. Samarqand ilmiy anjumanining (1926 yil 19 – 21 may) ahamiyati nimada edi?
9. Oʻzbekiston yangi alifbo markaziy qoʻmitasining birinchi plenumi(1928 yil 11 – mart) haqida nimalarni bilasiz?
- 10.Oʻzbekiston Oliy soveti sessiyasi 1940 – yil 8 – mayda alifbo toʻgʻrisida qanday qonun qabul qildi? Uning mohiyati nimadan iborat edi/

11. O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashining yangi alifbo to'g'risidagi (1993 yil 2- 3 sentabr) qonunni sharhlab bering.

12. harf birikma nima?

„ O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari” (1995 –yil 24 – avgust) bilan tanishmisiz.”?

Mavzu: Yozuvga o'rgatishning amaliy asoslari.

Reja:

1. Yozuvga o'rgatishning texnik va ta'limiy shartlari.
2. Yozuvga o'rgatish jarayonida ko'rgazmalilik.
3. Yozuv quollaridan unumli foydalanish.

Tayancg iboralar: Grafik bilim, orfografik ko'nikma, ko'tgazmali vosita ko'rgazmali harakat, yozuv tezligi, yozuv ko'nikmasi, harflar tahlili, qo'l va barmoqlar harakati, hoshiya chizig'I, texnik shartlar, ta'limiy shartlar, partaga to'g'ri o'tirish, ruchka va daftarni to'g'ri tutish, vertical va gorizontal chiziqlar, o'xshash unsurlik harflar, harf elementlari, rangli qalam va oddiy qalam, harf qiyaligi.

Adabiyotlar: 2, 3, 4, 5, 19, 20, 21.

Yozuvga o'rgatish murakkab jarayon bo'lib, u o'quvchining xarakteriga , kayfiy genik imkoniyatiga bog'liq bo'lgan psixolinistik jarayon sanaladi. Maktabga endigina kelgan bolalarni yozuvga o'rgatish nihoyatda qiyin kechadi. Shuningdek , bolalarni yozuvga o'rgatish bevosita o'qishga o'rgatish bevosita o'qishga o'rgatish jarayoni bilan bo'g'lab olib boriladi.

Yozuvga o'rgatish jismoniy va aqliy mehnat talab etadigan og'ir jarayon hisoblanadi. Yozuvga o'rgatish jarayoni o'qituvchilar zimmasiga qator mas'uliyat yuklay di.

Texnik shartlarga qo'yudagilar kiradi:di o'qituvchi bu jarayonda o'quvchilarning grafik va orfografik kunikmalarini yaxshi rivojlantirishga

harakat qilmog'I lozim. Grafik malakalari yaxshi rivojlanmagan o'quvchilar yozuv jarayonida tovushni harfga aylantirish, harfni yozish, ularni bir – biriga ulashda keragidan ortiq vaqt sarflaydilar. Grafik malakalarsiz to'g'ri yozuvlar bo'lishi mumkin emas. Bola qanchalik chiroyli yozsa, undagi yangi narsalarni o'zlashtirishga qiziqish ortadi. O'z ichiga sinchkovlik va diqqat bilan qaraydi, yozuvini kuzatib boradi. Yozuvni dastlabki vaqtlarda grafik jihatdangina kuzatsa, keyinchalik orfografik jihatdan ham kuzata boshlaydi.

Yozuv jarayonida yozuvni ifoda qilishning turli usullridan foydalanish mumkin. Masalan; hoshiya chizdirish , havoda qildirish kabiar.

O'quvchilarni yozuvga o'rgatishning muvaffaqiyatli natijasi bir qancha vositalarga bog'liq bo'lib, ularni shartli ravishda 2 turga ajratish mumkin.

1. Texnik shartlar
2. Ta'limiy shartlar
 1. Sinf jihozlarinining ketma – ketligi.
 2. Sinf xonasining talab darajasiga yoritilishi.
 3. Partad a o'quvchining to'g'ri o'tirishi
 4. Ruchkani to'g'ri ushlashi.
 5. Daftarni 65 % qiyalikda ishlash.

Daftar chizig'ining aniq va ko'z tashlanib turishi.

Ushbu shartlar bir- biriga o'zaro bog'liq holda to'g'ri yo'lga qo'yilsa, chiroyli yozuvga o'rgatishning texnikaviy shartlari bajariladi.

Ta'limiy shartlar – o'qituvchining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan shartlar majmuasidir:

1 – sinfga qabul qilingan o'quvchilar o'qishning dastlabki haftalarida o'qish va yozishga bo'lgan qiziqishi kuchli bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarning mana shu qiziqishlarini so'ndirmasdan maqsadga to'g'ri yunaltira bilishi zarur.. Buning uchun bolalarni fiziologik va psixologik

xususiyatlarini o'rganish talab etiladi 1- sinf o'qvchisi harfni yozayotganda shu harfning elementlariga tuzulganini, bu elementlar qayerdan qayergacha davom etishini, ularning chiziqlar orasida joylashuvini, harflarning ulchamini o'ylaydi. Boshlang'ich sinflarda yozuvga o'rgatishningeng quly yo'li bu harflarni guruhlarga ajratishdir. Bu guruhlashni harflarlnning o'xshash unsurlariga ko'ra tasnif qilish mumkin;

Ma'lumki o'quvchilarning yozish sur'ati bir xil bo'lmaydi. Lekin shunga qaramasdan butun o'quvchilarning yozish tezligini barobarlash chor - tadbirlarini belgilash, bir darsda yoziladigan material miqdorini aniqlab olish mumkin.Oquvchilar barmoq muskullarining erkin harakatlanishini rivojlantiruvchi mashqlarini doimiy ravishda o'tkazib turish han yozuvga o'rgatishning ta'limiy vositalaridan biri ko'rgazmalilidir. Ko'rgazmalilik 2 xil bo'ladi:

1. Ko'rgazmali tasvir.
2. Ko'rgazmali harakat.

Ko'rgazmali tasvir - bu oqituvchi tomonidan birorta harfning yozma shakli ifodalangan bo'lsa, shu shakl kichik hajmda , har bir o'quvchining partasiga beriladi. O'quvchilarning o'zlari harfning yozma shaklini ko'rib, daftarlariga yozadilar. Ammo bunday ko'rgazmalarni tayorlashda ortiqcha bezak larga o'rin bermaslik lozim. Bu ularni diqqatini chalg'itishi mumkin.

Ko'rgazmali harakat o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi, bunda o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi,bunda o'qituvchi har bir harfning yozilish shaklini doskada ko'rsatib izohlaydi. Ko'rgazmali harakatning to'g'ri bo'lishi uchun, avvalo o'qituvchining o'zi chiroyli yozuv qoidalarini, ya'ni har bir harfning yozishni nazariy qoidalarigina emas, balki amaliy yozilishini ham o'zlashtirgan bo'lishi lozim.

Savod o'rgatish davrida husnixat mashg'ulotlari katta o'rin va ahamiyat egallaydi. Savod o'rgatish uchun ajratilgan 140 soatdan tashqari umumta'lim o'rta maktablarning birinchi sinfida husnixat ta'limi uchun 21 soat ajratilgan . Bularning 4 soati alifbogacha bo'lgan (tayyorgarlik) davriga, to'g'ri keladi. 2

– sinfda 23 soat ajratilgan. Alfavitning harflari yozish harakati alomatlariga ko`ra ba`zan bir – birini takrorlaydilar. Masalan, **o, o`, e, u, v, g, g`, q.**

„Alifbe” ning ba`zi sahifalarida o`xshash unsurli harflarga doir rasmlar, yoki tasvirlar keltiriladiki, biron jihatdan u yoki bu harflar silsilasiga o`xshaydi. Agar ba`zi sabablarga ko`ra bu talablar kitobda rioya etilmagan bo`lsa, o`qituvchi mustaqil ravishda ushbu ishni amalga oshiradi. Ta`kidlab o`tish lozimki, ushbu rasmlar alohida shaklga ega emas, balki umumiy tasvirlardan ajratib olinadi va o`quvchilar o`qituvchilari yordamida uni rangli qalamlar bilan chizadilar. O`zshatishlar jarayonida harflar o`quvchilarning xotirasiga naqshlanadi.

Ta`kidlaganimizdek, alifbegacha bo`lgan davrda husnixat ta`limi uchun 4 soat ajratilgan. Bu soatlar qo`yidagi talablar va qoidalarini o`quvchilarga tushuntirish uchun ajratiladi:

- partaga to`g`ri o`tirishni o`rgatish;
- barmoqlar mashqi;
- yozuv qurollari- oddiy qalam, rangli qalamlar, ruchka, rasm daftar, husnixat daftari haqida ma`lumot berish;
- qalamni to`g`ri ushlash;
- to`g`ri, egri, changakli, yarim doira, doira shakli, zanjirli yozuv va shakllarni mashq qilish.

Ko`rinadiki, o`quvchilarni chiroyli yozuvga o`rgatish ta`limi o`qituvchilardan samarali usullardan oqilona foydalanish hamda ijodkorlikni talab qiladi.

Sharikli va peroli avtoruchkalar bilan yozish malakasini shakllantirish

Ayni damda eng ko`p tarqalgan yozuv qurollaridan biri sharikli (ravon yozadigan) ruchkalar bo`lib qolmoqda. Shundan kelib chiqib, butun sinf o`quvchilarning bir xil tipdagi avtoruchkadan foydalanishi katta ahamiyatga egadir. Chunki sharikli va prolix ruchkalar qo`lda bir xil ushlanmaydi. Ular varaq sathiga nisbatan turli xil qiyalikda ishlatiladi. Peroli ruchka bilan ishlayotganda u varaq sathiga nisbatan 35% - 45% qiyalikda, agar sharikli

ruchka bilan yozayotganda 50° - 60° qiyalikda ishlatiladi(3- rasm) . Bu avtoruchkalarga qarash va va ularni yozishga shaylashga ham har xil talab qo'yiladi. Agar bolalarga bir xil tipdagi avtoruchkalardan foydalanish qat'iy talab qilib qo'yilmasa, ularning biri qimmatbaho ruchkada, biri peroli, biri sharikli, boshqa birov esa ruchka pastasi bilan ham yozaveradi. Bu holat esa yozuv malakasining shakllanishiga salbiy ta'sir qiladi, o'qituvchining mehnatini murakkablashtiradi. Mana shunday holatning oldini olish uchun „Beh ravon“ tipdagi sharikli ruchkadan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

U birinchi ishlashga qulay, ikkinchidan, kerakli uzunlikka ega. Uchinchidan, pastasida ham boshqa ruchkalarga nisbatan rangi ko'p, to'rtinchidan, bu ruchkani ishlatish jarayonida parta va yozuv daftarlaribulg'anmaydi. Lekin ushbu ruchka ham kamchiliklardan holi emas:

Sharikli ruchka ko'p qiyalikda hamda usti yaltiroq qog'og'ozga yaxshi yozmaydi. Oquvchilar hamma vaqt o'z oldida bir dona toza varaq yo bosqich saqlashi lozim. Bu ruchka uchini tozalab turishga , varaq va qo'lni bulg'amaslikning oldini oladi. Chunki, birinchi sinfda bolalar juda sekin, ruchkani bir joyda ko'p ushlab, yoki ruchkani qattiq bosib yozadilar. Natijada, ruchka ichidagi sharik emirilib, rang to'playdi. Agar u tozalab turilmasa, hammayoqni bulg'ashi tabiiy hol.

Sharikli ruchka bilan yozayotganda bosim, ya'ni ko'p kuch ishlatilishning hojati yo'q. Shuning uchun bolalarga sharikli ruchka bilan yozishni o'rgatayotganda uning shu xususiyatini unutmaslik va bolalarga tushuntirmoq

lozim. Peroli ruchka bilan yozayotgan o`quvchilar bunday ruchka bilan ishlash jarayonida ehtiyot bo`lishlari zarur.

Chunki bola bossa, perosi sinishi mumkin. Sharikli ruchka bilan yozish jarayonida oldin o`quvchilarga aniq ko`rsatma beradi. Ruchkani uchta barmoqqa ushlash lozim. Katta ko`rsatkich va o`rta, katta va o`rta barmoqlar ruchkani ushlaydi, ko`rsatkich barmoq esa yuqoridan yozish jarayonini boshqaradi. Bolalar ruchkani barmoqlar orasida qattiq qismasdan erkin ishlashlari lozim. Yozish jarayonida ruchkaning oxirgi ishi o`ng elkaga qaratilgan bo`lishi darkor.

Oqituvchi ruchkani ishlash jarayonida qo`l holati qanday bo`lishini tushuntiradi. U ruchkani olib butun sinfga uni ishlash qoidalarini ko`rsatadi. Ruchkaning uchidan to qo`lning ko`rsatgich barmog`I uchigacha taxminan 2sm masofa bo`lishi kerak. Shundan keyingina o`qituvchi bolalarga yozish uchun ruzsat beradi. Birinchi kunlar o`quvchi o`qituvchi qo`lidan ko`zini uzmaydi. Ba`zi o`quvchilar ruchka ushlash qoidalarin tez uzlashtira olmay qiynaladilar. Ular ruchkani mushtlab oladilar, nihoyatda uchiga yaqin joydan ushlaydilar, peroli ruchkani chap ushlaydilar, ko`rsatgich barmoqlarini bukib ushlaydilar va hakozi. Bunday nuqsonlarni bartaraf etish o`qituvchiga qiyinchilik tug`diradi. O`z – O`zidan bunday nuqsonlar yozuvning husniga putur yetkazadi. Bola maktabga kelgan kunidan boshlab o`qituvchi ruchkani to`g`ri ushlashni o`rgatish lozim. Shuningdek, ruchkani maxsus ruchka saqlanadigan qutichalarga saqlash zarurligini ham alohida tushuntirib o`tish kerak. Ta`kidlash joizki, peroli ruchkaning uchi yuqoriga, shariklini uchi pastga qilib saqlanadi. Aks holda ularning rangi tukiladi.

Birinchi kuni yozishdan oldin butun sinf birgalikda o`qituvchi rahbarligida ruchkani tuzilishi bilan tanishadilar: uning qalpog`ini ochib, burab pastasini chiqaradilar, ya`ni ruchkani qismlarga bo`lib, yana qayta

sozlaydilar. Shu jarayonda o`qituvchi bolalarga dars vaqtida sababsiz ruchkani qismlarga bo`lishni man etadi.

Ta`kidlaydiki, ruchkalar uyda har tomonlama tekshirilib, pastasi tugagan bo`lsa, rang solib, keyin maktabga kelinadi.

O`quvchilarni har xil rangdagi pastalardan foydalanishga qo`ymaslik zarur. To`q ko`k yo qora rang bilan yozish maqsadga muvofiqdir. Qizil pastani faqat o`qituvchining o`zi ishlatadi.

Yuqoridagi malakalarni tez va mustahkam shakllantirish uchun o`qituvchi ota – onalarini to`plab mazkur qoidalarni ularga ham tushuntirmog`I lozim. Ikki tomonlama ( maktab va uyda) yordam bolani ushbu qoidalarni tez o`zlashtirib olishga amaliy yordam beradi.

Oquvchilarga ruchkani sumkada saqlash qoidalari, hamda yozuv qurollarini yaxshi saqlash va ehtiyot qilish talablari muntazam ravishda tushuntirib boriladi.

Qiyalikda yozish malakasini shakllantirish yo`llari

Yozishga o`rgatishning birinchi kunlaridayoq o`qituvchi oldida o`quvchilarni qiya yozish malakasini shakllantirish vazifasi turadi. Yozuv daftarlarida qiya qatorlar yo`q. Bular kerak ham emas, chunki bu ko`nikmalar asta - sekin mashqlar jarayonida shakllanib mustahkamlanib borishi kerak. Qiya yozish qog`oz holatiga ham bog`liq. Agar qog`oz kerakli holatda qo`yilgan bo`lsa, yozuv o`z – o`zidan qiya bo`laveradi va yozish jarayoni ozod va oson kechadi.

Yozuv qiyaligi 65° ni tashkil qilishi kerak. Bu hamma yerda qo`llanadigan umumiy qoidadir. Birinchi navbatda o`qituvchining o`zi qiya yozishdan maqsad, uning ahamiyati va mohiyatini tushunib olmog`I lozim. Daftar odatda parta ustida o`ng tomondan 65° qiyalikda qoyilishi lozim

Oquvchilar 2 –sinfda kichik harflarning balandligini 4mm, bosh harflarni 8mm qilib yozadilar. O`quvchilarni bir chiziqli daftarga yozishga o`rgatishda yozuv mashqlari o`tkaziladi:

// // // //

i i i i i i

uu uu uu

aaaa

Harf qiyaligini saqlab yozishda, qo'l harakatini uzmay yozish malakalari mustahkamlanib boradi. Bir chiziqli daftarga yozishda ba'zi o'quvchilar bir harfni katta, ikkinchisini kichik, baland past qilib yozadilar. O'qituvchi daftarlarni tekshirganda shu so'zni tuzatib yozib qo'yishi kerak. Qiya yozilgan yozuv bilan tik yozilgan yozuvning farqi o'quvchilarga ko'satiladi.

|||| ////

(tik)

(qiya)

Ona, ana non

ona, ana non

(tik)

(qiya)

Harf shakllarini yozishni o'gatyotganda o'ituvchi doskaga yozib ko'rsatadi. So'ng parta oralab ko'rib chiqadi. noto'g'ri yozganlar ogohlantirildi.

III sinfda o'quvchilar chiroyli yozish malakalarini yaxshi o'rganib oladilar.

Endi o'quvchilar ancha maydaroq yoza boshlaydilar. III sinfda yil boshidan bir chiziqli daftarga kichik

harflarni 3 mm.balandlikda, bosh harflarni 7mm balandlikda yozishlari kerak. O'qituvchi harflarning balandligini tushuntirish bilan birga quyidagi qoidalarni eslatib turadi:

Partada to'g'ri o'irish, ruchkani ushlash, daftar tutish qoidalari:

O'quvchilarni mayda harflar bilan tezroq yozishga o'rgatish:

Kichik harflarni bir xil balamdlikda bir tekis qilib yozishga o'rgatish:

Tez yozish mashqlar o'tkazish.Bu ishlarniyil davomida olib boorish kerak.

III sinfda o'quvchilarni chiroyli yozishga o'rgatish uchun ham tayyorgarlik mashqlari o'tkazish va chamalashga o'rgatish lozim.

ooo dddd cccc bbbb

Bu mashqlarni bajarishda qo'l harakatini uzun yozish, bosh va kichik harflarni bir-biriga bog'lab yozish kunlik masalani mustahkamlab boradi.

Yozuv daftarini partaning o'ng tomonidan 25 burchakda qiya yozishning asosiy sababi to'g'ri, oson va tez yozilishini ta'minlashdir. Agar daftar aytilgan burchak ostida qo'yilgan yozayotgan qo'lning tirsak qismi parta ustiga qimirlamasdan turadi sezilarli darajada qimirlaydi tirsakka tayanilgan holda qo'lni parta ustida harakat qildirangiz u pastdan tepaga qarab boradi. Agar daftar aytilgan burchak ostiga qo'yilgan bo'lsa, ruchka ishlaydigan qo'l daftarga to'g'ri chiziq chizadi. Agar daftar 25 ostida qo'yilmagan bo'lsa, xat pastdan tepaga qarab chiziladi. Ana shu holtni o'qituvchi tushinishi lozim. Shundagina u o'quvchilariga qiya yozish shartlarini to'g'ri tushuntira oladi. Qiya qo'yilgan yozuv daftarini yozuvni qiya chiqishini ta'minlaydi. Shundan kelib chiqib, o'qituvchi har kuni bolalar daftarini parta ustiga qanday qo'yilganini nazorat qilib boradi va ko'zga ko'ringan xatolarni o'z vaqtida tuzatib maslahatlar beradi.

Shuni ham unutmaslik kerakki, daftarini o'quvchi gavdasiga nisbatan qanday holatda qo'yilgan ham ahamiyatlidir. Agar daftar (uning varag'i emas) ko'krakning ro'parasida bo'lsa, yozishda qiyinchilik to'g'diradi, shuning uchun ham uni o'ng elkaga yaqinroq joylashtirish kerak. Shunda yozayotgan vaqtda gavda o'nga qarab qiyshaymaydi, aksincha tik turadi. Bu hol tibbiy – biologic tomondan ham umurtqa pog'onasining tik o'sishiga yordam beradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Yozuv jarayoniga o'rgatishdagi psixologik jarayonlar nimalarga bo'g'liq?
2. Yozuvga o'rgatishning ta'limiy vositalari nimalardan iborat?
3. Chiroyli yozuvning texnikaviy shartlari haqida gapirib bering.
4. Ko'rgazmali tasvir nima?
5. Ko'rgazmali tasvir oldiga qo'yiladigan bosh maqsad nimalardan iborat?
6. Ko'rgazmali tasvirni tayorlash uchun didaktik tablari haqida gapirib bering.
7. Ko'rgazmali harakat deganda nimani tushunasiz?
8. Ko'rgazmali harakatni yana qanday usullar bilan amalga oshirish mumkin?
9. Ko'rgazmalilik deganda pedagogic talablar deganda nimani tushunasiz?
10. Chiroyli yozuv nima maqsadda ishlatiladi.?
11. yozuv qurollarining sifati qanday bo'lishi kerak?
12. Qiyalikda yozish malakasi qanday yo'llar bilan shakllantiriladi?
13. Sharikli ruchkani xususiyatlari haqida gapirib bering.
14. Yozuv qurollarining nuqsonlari nimada namoyon bo'ldi.?

Mavzu: Harflar guruhining tahlili.

Reja:

- 1. Harflarning o'zhashlik guruhlari.**
- 2. O'zhash unsurli kichik harflar guruhi.**
- 3. O'xshash guruhli bosh hrflar gurhi.**

Tayanch iboralar: O'xshash unsurlar; elementli qismlar; osti va usti ilmoq; kalta va uzun tugunchalar; qolpoqcha; qo'shimcha ulanish elementi.

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 19, 20.

Boshlang'ich sinflarda yozuvga o'rgatishning eng qulau yo'li bu harflarni guruhlariga ajratishdir. Bu guruhlashni harflarni o'xshash unsurlarga ko'ra tasnif qilish mumkin;

O'xshash unsurli kichik harflar:

- 1- guruh: **I, u, m, t, l, y.**
- 2- guruh: **h, j, k, z, f,**
- 3- guruh: **o, o', q, a, g, g', p, d.**
- 4- guruh: **e, b, x.**
- 5- guruh: **r, v, s, sh, ch.**

O'xshash unsurli bosh harflar - guruhi:

- 1- guruh: **U, L, J, I.**
- 2- guruh: **M, H, K, N, A.**
- 3- guruh: **O, O', Q, X, CH**
- 4- guruh: **E, S, Sh, Z.**
- 5- guruh: **V, G, G', Y, D.**
- 6- guruh; **T, F, R, B, P**

1- **guruh kichik harflar:**

i . i i i i i - osti ilmoq unsur. Kichik *i* harfi ilmoq unsurlaridan hisoblanadi. Bir ilmoq bilan ifodalanib keladi, o'zidan olding *I* harfga katta ilmoq bilan qo'shiladi, keyingi harfga o'zining ilmoq qo'shimchasi biroz cho'ziladi. Bir unsurli harf: *nini, in, it.*

Ostiga nuqta qo'yiladi.

U

U – kichik ikki ilmoq harf, unli va o'zidan oldingi harfga ilmoqcha bilan, keyingi harfga esa dumchasi bilan ulanadi. Qo'l harakati uzmasdan yoziladi. Unsuri bir xil bo'lganligi uchun bir unsurli harf hisoblanadi: un tun.

n – kichik harfi ikki unsurli harf, sanoq ohang usulida 1- bir, 2 – ikki deb sanash bilan yoziladi: *non, ana, ona*

Osti va usti ilmoqli tayoqcha, qo'l harakati uzmay yoziladi.

m - undosh harfi, 3- elementli harf, 1 – tayoqcha, va -1 , 2 – ilmoqcha – m . Sanoq ohang usulida bir-1, ikki-1, uch- 2 ko`rinishida bo`libo`rtadagi 1- va deb hisoblanadi: *olma, mana*. O`zidan oldingi va keying harflarga kalta ilmoqcha va dumchasi bilan qo`shiladi. Bular usur hisoblanmaydi.

Bir- , ikki- , uch- : m

t - kichik harfi osti ilmoqli uzun tayoqchalardan iborat bo`lib, so`z tugagandan keyin belbog`chasi qo`yiladi: *tutun*. Bir elementli harf()

ye harfi elementlarga ajratilmay bir butun shaklda yoziladi. O`zidan oldingi va keyingi harflarga osongina qo`shiladi: *lola, ol, bol*.

K - kichik harfi uch elementdan iborat. Birinchi elementiusti tugunchali uzun tayoqcha - , ikkinchi elementi birinchi elementga bog`liq kichik doiracha - , uchinchi elementi osti va usti ilmoqli tayoqcha - bir – ikki - , uch - : *k ko`l, aka*.

o` - kichik harfi ikki elyementdan iborat harf. Birinchi elyementi osti ilmoqli kichik tayoqcha - , ikkinchi elyementi uzun tugunchakli tayoqchadan iborat:

y, yo`l, oy.

2 – guruh:

h - kichik harfi ikki elyementidan iborat harf bo`lib, birinchisi - uzun tugunchali tayoqcha - , ikkinchi elyementi osti va ustki ilmoqli kalta tayoqchadan iborat:

hol, oh.

j - kichik harfi ham *i* harfi singari bir butun yozilzdigan osti ilmoqli uzun tayoqchadan iborat, nuqtasi so`z yozib bo`lingach qo`yiladi: *jon, ajin, anjir*.

f – kichik harfi bir butun shaklda, qo`l harakati o`zmasdan yoziladi. O`ning eleyementlari chiziqdan pastga tushadi: *fil, fan, afzal, foiz, afsona*.

z - kichik harfi bir butun shaklda, qo`l harakati uzulmay, elyementlarga ajratilmay yoziladi; elyementlarga ajratilmay yozilasdi:

zil, goz, zina , qozon.

3 – guruh.

o va o` harflari kichik doira shaklidagi, oval ko`rinishda. O o`zidan keyingi harf bilan yuqoridan bog`lansa, qo`l harakati uzilmaydi:

o` harflarning o`stiga kichik ko`ndalang chiziqcha bo`ladi. Bosma yozo`vda o`ng tomonida teskari vergul bilan ifodalanadi: *o`-o`, o`n, to`n, o`t.*

q - kichik harfi ostiga bir ilmoqcha bilan farqlanadi. Sanoq - ohang usulida ikki elyementli hisoblanadi: oq , qoqi, o`qi.

a - kichik a harfi ikki elyementidan iborat bo`lib cho`zinchoq doira va osti ilmoqli kichik tayoqchadan iborat: - a ana, ona, qand, pand.

g - kichik harfi ikki elyementlardan iborat harf bo`lib kichik cho`zinchoq doira , va osti tugunchakli uzun tayoqchadan iborat: g gul, tong.

Kichik n harfiga kichik g qo`sholib ng harf birikmasi hosil bo`ladi.

g` - kichik g` harfining o`stiga ko`ndalang chiziqcha qo`yilsa kichik g` harfi yoziladi, bosmada uning uning yuqori o`ng tomoniga teskari bergul qo`yilsa g` ikki unsurli harf.

p - kichik harfi ikki elyementdan iborat. Birinchi unsure uzun tayoqcha ikkinchisi cho`zinchoq dora o - p pul, upa, opa.

d - kichik harfi ikki elyementdan iborat:

uzun doiracha va osti ilmoqli uzun tayoqcha: don , ado.

4 – guruh. e , b, x.

y e – kichik harfli elyementlarga ajratilmay bir butun shaklda yoziladi. U boshqa harflarga oson bog`lanadi: *yel, kyel, syel.*

b - kichik harfi elyementlarga ajratilmay bir butun shaklda yoziladi. Uning yozma shakli ikki xil ko`rinishga ega. Oxirida kyelganda - b qo`l harakatito`xtab harf chiziqcha bilan bog`lanadi. Boshqa harflar bilan bog`langanda qo`l harakatiuzulmay bog`lab yoziladdi: *bol, sharob, bino, kitob.*

x - kichik harfi ikki o'ng va chap yarim doiradan iborat, qo'l harakati uzmay yoziladi: *xat, no'xat*.

5 – guruh. ch, v, s, sh, ch.

Kichik ch - to'liqinsimon shakldagi chiziqcha osti ilmoqli kichik tayoqcha elementlariga ajratilmay bir butun shaklda yoziladi: *chom, achcha, obcho'y*. Qo'l harakati uzilmay yoziladi –ch.

v -kichik harfi ham elementlarga ajratilmay bir butun shaklda yoziladi: *vaqt, volida, viqor, vasl*.

s – o'zidan keyingi harfga ilmoqcha bilan qo'shiladi: *soya, oson, osmon, os*.

sh - kichik s harfiga h harfi qo'shilib harfiy birikma hosil bo'ladi; *sholi, osh, sham, ushoq*.

cn - kichik c byelgisiga yumshoq h harfi qo'shilib hosil bo'ladi. Harfiy birikma dyeladi: *ch, choy, chol, soch, qoch, kuloch*.

Uch harakat bilan yoziladi:

Bosh harflar guruhi

1 guruh: U, J, L, I.

1. katta -U harfi ikki elementlardan iborat. 1 – ham o'rti, ham osti ilmoqli uzun tayoqcha, 2 – osti ilmoqli uzun tayoqcha: *Umida*

2. Katta J harfi bir butun shaklda qo'l harakati uzilmay yoziladi: *Jahon*.

3. Katta L – harfi qo'l harakati uzilmay, bir butun shaklda yoziladi. Ammo kichik harflarga ulanish uchun ulash chizig'i biroz o'zgaradi: *Lola*

4. Katta I harfi qo'l harakatini uzmasdan bir butun shaklda yoziladi :I murakkab shaklli harf hisoblanib, o'rganish biroz qiyinchilik to'g'diradi. *Ilhom*.

2- guruh: M, H, K, N, A.

1. Katta M harfi uch elementdan iborat bo'lib qo'l harakati uzmay yoziladi: *Madina*

2. Katta H harfi ham elyementlarga ajratilmay bir butun shaklda yoziladi. Uning pastki va ustki tugunchalari bir xil bo'lishi lozim :*Hikoyat*.

3. Katta K harfi ham bir butun shaklda yoziladi va o'zidan kyengi harflar bilan oson bog'lanadi. Uch elyementli harf: *K Komil*

4. N katta harfi elyementlarga ajratilmay bir butun holatda yoziladi: N o'zidan kyeingi harfga ilmoqchi bilan bog'lanadi. *Noila*. Bu harfga kichik g harfi qo'shilib Ng harfiy birikma hosil qiladi, uni ishlatmasa ham yozdirish mashq qildiriladi.

Katta A harfi elyementlarga ajratilmaydi. 65 qiyalikda to'g'ri tayoqcha tushirib, yarim oy shaklidagi tyepadan to'shirilgan chiziqchada qo'l harakati uzmay tuguncha elyementi yoziladi. Bu harf shaklini qo'l harakati uzib yozsa ham bo'ladi.

A Ikkinchi yozish usuli

Ali, Asal.

3- guruh D, O, O', Q, X, CH

Katta O va O' harflari bir butun shaklda yozib, boshqa kichik harflarga ulanishda qo'l harakati uzilib yoziladi, O' harfi ustiga ko'ndalang chiziqcha yoziladi.

O'lmas, Omon, Ormon

Katta „O'“ harfining ostiga ilmoqsimon chiziqcha chizilib bosh „Q“ harfi hosil qilinadi .

Qobil, Qodir, Qumri.

Katta X harfi yozish cho'zinchoq doira shaklidagi ikki elyementdan iborat, bu elyementlar qo'l harakatini uzilmay qo'shib yoziladi.

Charos, Chinor.

4- guruh E, S, SH, Z.

Katta Ye harfining yozilishi usuli ancha murakkab, chunki bu harfni yozishda qo'l soat miliga qarshi harakat qilish lozim. Bu harfning yuqoridoira shakli, pastki doira shaklidan ancha kichikroq bo'lib ular uzilmay yoziladi : Elat Elbek

Katta S va Sh harflari kichik shakllari kabi yoziladi, ular faqat o'lchami bilan farq qiladi:

Sobir, Sodiq.

Sh shaklida yumshoq h harfi qo'shilb hosil bo'ladi: *Sharifa*

Sh – 4 harakat bilan hosil bo'ladi.

Katta Z harfi bir butun shaklda yoziladi. Bu harf yozilishida ham bog'lanishida ham qo'l harakati uzilmaydi: *Zokir, Zikir, Zilola.*

5 – guruh: V, G, G' Y, D.

Katta V harfi kichik v harfi shaklida bo'lib, faqato'lchami bilan farq qiladi. Ozidan keyingi harfga ilmoqcha bilan bog'lanadi:

Valijon, Vasila, Voris.

Katta G va G' harflari elyementlarga ajratilmay bir butun shaklda yoziladi. Bu harflar ancha murakkab usulda yoziladi, chunki qo'l soat miliga qarshi harakat qiladi. Bosh g' harfi yozishda har o'stiga ko'ndalang chiziq chiziladi:

G- Go`lnora

G -G`uncha

Katta Y harfi ikki elyementdan iborat. Birinchi elyementi - osti va usti ilmoqli tayoqcha, ikkinchi elyementi -osti ilmoq tugunchalari uzun tayoqchadan iborat. Bu harf ham bir butun shaklda yoziladi.

Y – Yo`lchi, Yo`ldosh.

Katta D bir butun shaklda yoziladi:

Dil.

6 – guruh: T, F, R, B, P.

Katta T va F harflarining ham elyementlari qo'l harakatini tyerib yozilishini talab etadi:

T F o'zidan kyeingi kichik harflarga qo'l harakati uzilmay yoziladi. Chunki ikkinch va uchinchi elyementlar () so'z tugagandan ao'ng qo'yiladi.

Tohir, Fazilat.

Katta R harfining birinchi elyementi alohida , ikkinchi elyementi alohida yoziladi. R- Ra'no

Katta B harfi bir butun shaklda yoziladi. Ikki ko'rinishga ega :

1- , 2-

Bilol, Barchin

O'zidan kyengi kichik harflarga qo'l harakati uzilmay qo'shiladi

Katta P harfi ikki elyementlardan iborat bo'lib, qo'l harakatini uzib yozishga to'g'ri kyeladi. Kichik harflar bilan yordamchi ulash elyementi orqali q'ol harakatini uzmasdan bog'lab yoziladi:

P –Parpi, Po'lat.

Tyepa elyementiso'z to'gagandan kyein qo'yiladi:

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Harflarni guruhlariga bo'lish qanday tamoilga asoslanadi?
2. Bosh va kichik harflarning o'xshashligi nimasi bilan farqlanadi?
3. Harfiy birikmalar haqida tushuncha bering. Ularning bosh va kichik ko'rinishlariga izohlang.
4. Ng va ch harfiy birikmasi qanday muammoli izoh talab etadi?
5. Bosh harflarning qaysi guruhi elyementlarga bo'linuvchi hisoblanadi? Ular qanday yoziladi?
6. Hars elyementilari bilan tanishtiriladi? Kalligrafik mashqlarchi?
7. Elamantlar bilan qaysi ta'lim bosqichida tanishtiriladi?
8. Oquvchilarni chiroyli yozuvga o'rgatish uchun qanday muammolarni bartaraf etish lozim?
9. Yozuvga o'rgatishda harflarning qaysi shakli birinchi o'rgatiladi va qaysi harflar?

10. Genetik va sanoq – ohang usullarining bir – biridan farqi nimada
Birisiz ikkinchisini amalda qo'llab bo'ladimi?
11. Harflar o'xshash unsurli guruhlar asosida o'rgatiladimi?

Mavzu: 1- sinfda yozuv daftari asosida olib boriladigan mashg'ulotlar

Reja

1. yozuv daftar asosida hosil qilinadigan imloviy bilimlar.
2. Imloviy o'yinlar.
3. Diktant turlari.

Tayanch iboralar: Grafik malaka, harf elementlari, harf nusxalari, so'zlar nusxasi, yozma shakl, bosma shakl, tovushlar tarkibi, harf va tovush, harfiy diktanti, so'z diktanti, bo'g'in diktanti, gap diktanti, ochiq va yopiq bo'g'in.

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 4, 20, 21.

Yozuv daftari asosida uyushtiradigan yozuv daftarida o'quvchilar asosan grafik malakalarni egallaydilar.

Yozuv ko'nimalarini shakllantirish ham bevosita nutq hamda tafakkur faoliyati bilan bog'liq. Shu tufayli yozuv daftari yozuv o'rgatish jarayonining davrlashtirishiga mos holda tuziladi. O'quvchilar tayyorlov davrining birinchi bosqichida yozuv chiziqlarini farqlash (asosiy yozuv chizig'i: (=); yordamchi yozuv chizig'i: (---//) , harf elementlarini yozish, elementlar oralig'ini chamalash orqali ular orasida bir xilda masofa qoldirish, hoshiyalar ustidan chizishni mashq qilish orqali qo'lni yozuvga tayyorlash ishlarini bajaradilar.

Ikkinchi bosqichda unli harflarning kichik va bosh shakllarini yozishni o'rganadilar.

Asosiy davrda undosh harflarning kichik va bosh shakllarini , o'rganilgan unli va undoshlar bilan bo'g'in, so'z, gap yozishni mashq qiladilar. Bu davrda harflarning o'quvchi xotirasida to'g'ri foydalanish, tovushlarning so'z ma'nosini farqlashdagi vazifasini anglashlariga erishish, shular bilan bog'liq holda nutqni boyitish, fikrlash faoliyatini rivojlantirishko'zda tutiladi.

Daftarda ta'lim beruvchi, o'rganuvchi - tekshiruvchi, tekshiruvchi xarakterdagi mashqlar berilgan. U bilan ishlashda lug'at ishiga doir, talaffuzmashqlari, og'zaki suhbat, hikoyalash, tuzilgan hikoyadan gapni, gapdan so'zni ajratish, so'zni bo'g'inlarga bo'lish, so'z yoki bo'g'indagi yozilishi o'rganiladigan harfni ajratish, bo'g'inlarni biriktirish, tuzilgan so'zlarni o'qish va yozish kabi ish turlari bajariladi.

Yozuv daftarida o'quvchilar „Alifbe“ kitobida o'qigan tovush tarkibini bir butun holda gavdalandira oladigan til birligini yozadilar.

Daftarning yuqori qismida predmet yoki mazmunli rasmlar berilgan. Ayrim predmet rasmlari nomlarini ifodalovchi so'z nusxalari katakchalarga ajratib berilgan, ayrimlarida ajratilmagan, ulardagi tovush soni tahlil yo'li bilan aniqlagach, bolalarning o'zlari katakchalarga va bo'g'inlarga mustaqil ajratadilar. Ba'zi o'rinlarda rasm asosida tuzilgan gapning nusxasini o'quvchilarning o'zlari chizadilar. Nusxa asosida gapning yozilishini izohlaydilar.

Predmet rasmi berilgan o'rinda shu predmet nomi - so'z bo'g'in-tovush jihatdan tahlil qilinadi, so'zdagi, tovushlar soni suhbat aniqlanadi va tasmachada belgilanadi. Masalan, 14 – sahifadagi rasm va tasmachacha ustiga quyidagicha tahlil o'tkaziladi.

Ramdagi predmet nomini ayting.

Shu so'zni men talaffuz qilaman, siz unda nechta bo'in borligini aniqlaysiz (non –bir bo'inli so'z)

Non so'zini aytib, so'z boshidagi va oxiridagi bir xil undoshni ayting (n)

Noon qaysi tovushni chuzib aytdim? (o unli tovushni)

Demak, so'zda nechta tovush bor? (3 ta tovush bor)

Tasmachani nechta katakchada ajratish kerak? (3 ta katakchaga ajratish kerak)

Undosh va unli tovushning o'rnini bo'yang

Mazmunli rasm rasm asosida nusxasiga mos gap tuziladi. Buning uchun o'quvchi shu nusxada mos svol beradi. Masalan: Qizchaga ism qo'ying . Noila nima kiydi....(4 sahifa) Shundan so'ng qisqacha gapning gapning necha so'zdan tuzillgani, boshlanishi, oxiriga nuqta, so'roq, undov belgisi qo'yilishi ustida tahlil ishlari o'tkaziladi.

Harfning yozma shakli uning bosma shakli bilan taqqoslash orqali tanishtiriladi.

Bulardan tashqaei, daftar sahifalarida yozishga o'rgatish bilan bog'liq ta'limiy o'inlar ham berilgan.

Bunda avvalo unli va undosh qo'shib o'qiladi, hosil bo'lgan so'zlar (on, o'n un, in.) o'z qatoriga yoziladi. Harflarning ulanishiga alohida diqqat qaratiladi.

Yozuv daftari asosida hosil qilinadigan imloviy bilimlar va diktant turlari

„Yozuv daftari” o'quvchilarning orfografik bilimlarini amaliy o'zlashtirishlari uchun boy materiallarga ega.

O'qituvchi yozuv daftari bilan ishlashdan oldin „Bugun o'quvchilarga nimani o'rgataman?”, „Nima uchun o'rgataman? Qanday o'rgataman?” degan mulohaza yuritish zarur. Aks holda yozuv darslari quruq yozish, nusxa ko'chirish darsi bo'lib qoladi.

Yozuv daftari bilan ishlash jarayonida o'quvchilarga beriladigan bilimlar uch xil yo'nalishda bo'ladi: 1. Grafik bilimlar. 2. Grammatik bilimlar. 3. Imloviy bilimlar.

Yozuv daftari asosida beriladigan grafik bilimlar: har bir harfning yozma kichik va bosh shaklini yakka holda yozish va oʻzidan keyingi va oldingi harflarga ulash koʻnikmasi yozishga oʻrgatish jarayonida hosil qilinadi.

Grammatikadan amaliy bilimlar daftar sahifadagi til birliklarini elementlar tahlil qilish jarayonida shakllantiriladi.

Fonetik va Grammatik bilimlar asosida esa imloviy malakalar shakllantiriladi.

Toʻgʻri hosil qilingan grafik malakalar esa boshlangʻich sinf oʻquvchilarining imloni oʻzlashtirishlariga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Chunki yozish malakasini egallamagan oʻquvchida boshqa bilimlarni oʻzlashtirishga havas boʻlmaydi. Shu sababi har bir oʻquvchi avvalo yozuvning elementar talablariga eʼtibor berib, bolaga yozuvda ichki ehtiyoj, qiziqish hosil qilishi lozim. Aslida grafik Grammatik, imloviy bilimlar har paytda hosil qilinadigan, bir –biri bilan uzviy bogʻliq hodisalardir. Oʻqituvchi shuni nazarda tutib darsda uyushtiradigan ish turlarini izchil amalga oshirish lozim.

Yozuv darslariga qoʻyidagi imloviy bilimlar hosil qilinadi: ayrim unilarning yozilishi (a, o, u, I, oʻ, e), ayrim undoshlarning yozilishi, baʼzi bosh harf bilan yoziladigan soʻzlarni toʻgʻri yozish, gapda soʻzlarni alohida – alohida yozish, soʻzlarni boʻgʻinlarga ajratib yozish kabi. Oʻquvchilarning grafik va imloviy bilimlari yozuv darslariga oʻtkaziladigan diktantlar yordamida aniqlanadi. Bu diktantlar taʼlimiy xarakterga ega boʻlganligi uchun ular grafik va imloviy bilimlarni oʻrgatish, singdirishga yoʻnaltirilgan.

Yozuv darsida oʻtkaziladigan diktantlar materialiga koʻra **harfiydiktant, boʻgʻin diktanti, soʻz diktanti, gap diktanti** turlariga ajratiladi.

Harfiy diktant. Bu diktant yozilishi oʻrganilgan harflar yuzasidan oʻtkaziladi. Dastlabki soatlarda boʻsh qatorlarga 1- 2 yoki 3-4 ta harf yozdirish bilan cheklanadi, keyinchalik esa qator toʻldirib yoziladi. Bunda harf shaklini toʻgʻri yozishlariga, chiziqlar orasiga toʻgʻri joylashtirishlariga, oralariga teng masofa (bir katak) qoldirishlariga diqqat qaratiladi:

Oo Oo Oo Oo Aa Aa

Kk Kk Uu Uu Nn Nn

II. Bo'g'in diktant. Bunda alifbe darslarida o'qib o'rganilgan, yozuv darslariga yozilishi mashq qilingan bog'inlar tanlanadi, ular tovush harf jihatdan tahlil qilinadi. Oldingi va keyingi tovushlar, ularni ifodalovchi harflar, ularning ulanishi og'zaki tushuntiriladi. So'ng yozishga ruxsat beriladi.

Bog'in diktant darsdan darsga murakkablashtirilib boriladi. Masalan, 1- bo'g'in diktant unli + undosh, undosh + unli tuzilishida bo'lsa, keyinchalik undosh + unli + undosh tuzilishida murakkablashtirilib boriladi. O'qituvchi har darsda yozdiradigan bo'g'inlarni qat'iy belgilab olishi zarur.

Lo la lu le li lo' lin

To tu to' te ti ta tut til

III. So'z diktant. So'z diktant ham alifbe darslarida o'qilishi o'rganilgan va yozuv darslariga yozilishi mashq qilingan so'zlar asosida o'tkaziladi. Bunda to'g'ri yozuvni ta'minlash uchun bo'g'in tovush, tovush harf - harf tahlili uyushtiriladi. Dastlab 1-2 tovushli ochiq 2 bog'inli so'zlar tanlanadi.

So'z diktantda so'z tarkibining to'g'ri shaklini o'rgatib borishdan tashqari, atoqli otlarni bosh harf bilan boshlashni, qolgan so'zlarni kichik harflar bilan yozish, so'zlar orasiga vergul qo'yish kabilar o'rgatib boriladi.

Nodir, Po'ljan, paxta, soat.

Vatan salom, tutun, tilla

IV Gap diktant. Bu diktantda oldingi darsda yozilishi o'rganilgan material sifatida aynan olinmaydi. Undagi so'zlar aynan saqlangani holda bir oz o'zgartiriladi. Dastlab ikki so'zli, so'ng 3-4 so'zli darak gap tanlanadi. Bu miqdor sinf o'quvchilarining iqtidoriga bog'liq holda o'zgartiriladi:

Oltin olma, duo ol.

Bulbul chamanni sevar odam - Vatanni

Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Yozuv daftarida berilgan mashg'ulotlar qanday asoslanadi ?
2. *Yozuv daftarida berilgan ta'limiy o'yinlarga izoh bering.*
3. Harfiy diktant qachon uyushtiriladi?
4. Bo'g'in diktantiga qanday material tanlanadi?
5. So'z diktanti asosida ochiq va yopiq bo'g'inlarga izoh bering
6. Gap diktantiga qanday material tanlanadi?
7. Yozuv daftari bilan ishlash nechaxil yo'nalishda amalga oshiriladi?
8. Grafik bilimlarni uyushtirishni misollar asosida izohlang.
9. Grammatik imloviy bilimlarga izoh bering
10. Yozuv daftaridagi rasmlar nima uchun berilgan?

MUSTAQIL ISHLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

(62 – soat)

1. *Butun jahon madaniyati tarqqiyotida yozuv qanday o'rin tutadi? „Milliy uyg'onish“ davri imlo haqida nimalar bilasiz?*

1. XX asr boshlarida o'zbek yozuvini yaratishda ziyolilarning xizmati haqida
2. Arab yozuvidan qachon voz kechdik?
3. Lotin yozuviga asoslangan yangi imloning kamchiliklari nimadan iborat edi?
- 4 Nima uchun krill yozuviga o'tdik ? Bunga qanday ehtiyoj bor edi?

II *O'zbek tilining asosiy imloviy qoidalar haqida ma'lumot.*

1. „O'zbek tilining asosiy imlo qoidalar“ haqida qonun qachon qabul qilindi?
2. Qoidalar qanday mahkama tomonidan tasdiqlandi?
3. Necha qoidani o'z ichiga oladi?
4. Harflar imlosi qay tartibda berilgan?

III Husnixatda o'rgatish usullari va ularning turlari haqida ma'lumot bering.

1. Genetik sanoq ohang metodlari qanday bog'liqlikka ega?
2. Namunaga qarab ko'cherish va namunaga qarab yozish usullari bir-biridan farqi nimada?
3. Nega nusxa ko'chirish va tasavvur orqali yozish usullarini yordamchi usullar deyiladi?
4. Harflar shaklini tahlil qilish usulida amaliy ishlar qay tarzda amalga oshiriladi?

IV. Namunaga qarab yozish usuli haqida ma'lumot. Misollar bilan izohlang.

1. Namunaga qarab yozish usuli qanday usul hisoblanadi?
2. Namuna qilib yozish kim tomonidan, qayerga yozib ko'rsatiladi?
3. Namunaga qarab yozish usulining namunaga ko'chirib yozish usuli farqi nimada?
4. Harfiy birikmalar imlosi haqida izoh bering?

V Namunaga qarab ko'chirib yozishni izohlang. Namuna asosida.

1. Namunaga qarab ko'chirib yozish usuli qanday tamoil asosida qo'llanadi?
2. Bu usulning boshqa usullardan farqi nima bilan izohlanadi?
3. Namunaga qarab yozish usul o'qituvchi uchun qanday imkoniyatlar yaratadi?
4. Ushbu usulning o'quvchilar uchun qanday afzalliklari mavjud?

VI. Nusxa ko'chirish va tasavvur orqali yozish usullarini qanday usul hisoblanadi?

1. Nusxa ko'chirish usuli qanday o'quvchilar uchun qo'llanuvchi usul hisoblanadi?
2. Tasavvur orqali yozish qanday usul hisoblanadi?
3. Tasavvur orqali yozish usuli jismoniy jihatdan qanday ahamiyatga ega. ?

4. Nusxa ko'chirish va tasavvur orqali yozish usullari nima uchun yordanchi usullar sanaladi?

VII. Harflar shaklini tahlil qilish usulida qanday mashqlar usulida amalga oshiriladi?

1. Harflarning shakli qanday yo'llar bilan tahlil qilinadi?
2. Ko'p elementli harflar shakli tahlil qilishni izohlang?
3. Bier butun shaklda yoziladigan harflar elementi qanday izohlanadi?
4. Harflarning elementlari kim tomonidan izohlab beriladi?

VIII. Genetik sanoq - ohang usuli qanday usul hisoblanadi? Saoq - ohang usulining afzalliklarini izohlang.

1. Genetik usul harfning qanday jihatlarini o'rganadi?
2. Sanoq ohang usulining boshqa usullardan afzalligi nimada?
3. Harflarning elementar tahlili qaysi metodda tafsiflanadi?
4. Genetik va saoq- ohang usullarining bir- biri bilan bog'likligini izohlang.

IX. Yozuv malakasini ongli ongli o'zlashtirish usuli.

1. Chiroyli yozuv qoidalar 1- sinf o'quvchilariga qachon o'rgatadi.?
2. Husnixatga oid qoidalar 1-sinf o'quvchilariga qachon o'rgatiladi?
3. 1 – sinfda harflar imlosi qachon o'rgatib boriladi?
4. Harflarning tahlil- tarkibiy jihatdan o'rganish boshlang'ich ta'limning qaysi bosqichida amalga oshiriladi?

X. Xatolar ustida ishlash usulining imloviy qoidalarini o'zlashtirishdagi o'rni.

1. Imloviy xatolar ustida nazorat necha xil usulda amalga oshiriladi?
2. Harflar, matn necha gradus qiyalikda yozilishi shart?
3. Ko'p takrorlangan, bir xil xatoni qanday bartaraf etish mumkin?
4. O'z xatosini ko'rish va tuzatish uchun o'quvchi qanday taqqoslash usulidan foydalanishi lozim?

XI. O'quvchilarning imloviy bilimlariga qo'yiladigan ta'limiy, texnik va gigiyenik talablar.

1. Yozuvga o'rgatishning ta'limiy vosita va qoidalari nimalardan iborat?

2. Chiroyli yozuvning texnikaviy gigienik shartlarini izohlang.

3. Daftar muqovasiga va ichki gigiyenasiga qanday talablar qo'yiladi?

4. Imloviy bilimlari ust bo'lgan o'quvchilar imloviy malakasini qanday usullar bilan rivijlantirish mumkin?

XII. 1-sinf husnixat dasturi asosida ishlash va uning mazmuni tahlili.

1. Davlat ta'lim standartida 1- sinf husnixat bo'limiga necha soat ajratilgan?

2. 1 – sinf husnixat dasturi qanday qoidalarni o'z ichiga oladi?

3. Yozuv qurollaridan to'g'ri foydalanish mazmunini izohlang.

4. Choraklar bo'yicha husnixat soatlarini izohlang (1- sinf).

XIII. 2 –sinf husnixat dasturining mazmuni va tarkibi haqida ma'lumot.

1. Davlat ta'lim standartida 2- sinf husnixat bilimiga necha soat ajratilgan?

2. 2 – sinf husnixat dastur qanday tamoillar asosida tuzilgan?

3. Husnixatga o'rgatish metodlari 1- sinfdagi imloviy ta'limidan nimasi bila farqlanadi?

4. DTS da yozuv tezligi 2- sinf larga qanday talablar qo'yadi (hisobida yozuv tezligi)?

XIV. 3-4 sinflarda imloviy bilim mazmunini va tuzilishini izohlang.

1. 3 –sinflarda imloviy bilimlarning bo'limi sifatida husnixat bilimiga qancha vaqt ajratilgan ?

2. 4 – sinflarda husnixat bilimiga qachon va qancha ajratadi?

3. Harflar va tinish belgilar imlosi 3 -4 sinflarning qaysi ta'lim bosqichida o'rgatiladi?

4. Imloviy bilimlar ta'limning keyingi (katta sinflar) bosqichlarida ham uyushtiriladimi? O'quvchilarga qachon orfografik bilimlar beriladi?

XV. Davlat ta'lim standartining husnixat (imlo)ga bo'lgan talablar izohi

1. Davlat ta'lim standarti husnihat bilimni o'zlashtirishda qanday talablar qo'yadi?
2. 1 – 2 –sinf o'quvchilarining imloviy bilimlari(daftarlari) ni har kuni tekshirib boorish nima maqsadda uyushtiriladi?
3. Imloviy bilimlarni tekshirish maqsadida turlari uyushtiriladi?
4. Bayon yozish nechanchi sinfdan boshlanadi ?

XVI. Unli harflar imlosi asosida ishlash. Misollar bilan izohlang.

1. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarida unlilar imlosi qanday izohlangan?
2. Diktant yozishda imlosi qiyin so'zlar qanday tahlil qilinadi?
3. Yonma - yon kelgan unlilar qanday yoziladi?
4. Teatr , radio, doim, tabiat, rioya so'zlarining imzisinini izohlang.

XVII. Undosh harflar imlosi asosida amaliy mashqlar.

1. Undoshlar imlosida sodir bo'ladigan imloviy qiyinchiliklarni bartaraf etish muammosi.
2. Jarangsiz jufti bo'lgan jarangli tovushlar imlosi.
3. Harfiy birikmalarning bo'g'in bo'lish qoidalari asosida imloviy tahlili.
4. Yonma -yon kelgan undoshlarning imlviy tahlili.

XVIII. Kichik harf guruhlarining bosma va yozma shakilining tahlili.

1. Kichik harflar guruhi o'xshash unsurli necha guruhga bo'linadi?
2. Qanday shaklli harflar birinchi navbatda o'rganiladi?
3. Kichik harflarning bosma va yozma shakllarini taqqoslash bilan izohlang .
4. Harflarning bosma shaklini yozish nima uchun o'rgatiladi?

XIX. Bosh harflaring bosma va yozma shakllari tahlili.

1. Bosh harflarning guruhi o'xshashligi jihatdan necha guruhga bo'linai?
2. 6-guruh bosh harflar boshqa guruhlardan nimasi bilanfarqlanadi?
3. Bosh Ng harfiy birikmasi yozuvga o'rgatishning sababi nimada?

4. Bosh harflar guruhining bosma va yozma shakllari asosida tahlil qiling

XX. 1-sinf o'quvchilarini chiroyli yozuvga - husnixatga o'rgatish masalasi

1. Yozuvga o'rgatish jarayonining psixologik xususiyatlarini izohlang.
2. Yozuvga o'rgatishning fiziologik jihatlari nimalardan iborat.
3. 1- sinflarda yozuvga o'rgatishda ko'rgazmali vositalardan foydalanish masalasi
4. Yozuvga o'rgatish gigienasi haqida izoh bering

XXI. 2- sinf o'quvchilarini husnixatga o'rgatish masalasi.

1. 2-sinf o'quvchilarga imloviy bilim va malaka hosil qilish muammolari
2. 2-sinfda Alifbo bilan tanishtirish qanday tashkil etiladi?
3. 1 soatlik imloviy bilim ishlanmasini izohlang.
4. Boshlang'ich sinflarda tinish belgilari bilan tanishtirish qaysi bosqichda kuzatiladi?

XXII. 3-4 sinf o'quvchilarining imloviy savodxonligini oshirish yo'llari.

1. 3-4 sinflarda husnixat darslari uchun qancha vaqt ajratilgan.
2. Imloviy savodxonlikni oshirish uchun mustaqil ishlarning qaysi turlari qo'llaniladi.
3. 3-4 sinflarda bayon yozish uchun o'quvchilar oldiga qanday talablar qo'yiladi?
4. Bayon yozish, uni tekshirish va baholash qanday tamoyilga asoslanadi?

XXIII. Diktant yozish va diktant xatolarini bartaraf etish masalasi.

1. Diktant yozishda qanday ulchamdagi matn tanlanadi?
2. Necha xil diktant turlari mavjud ?
3. Diktant xatolari necha xil usul asosida tekshiriladi?
4. Xatolar qachon va qaerda tahlil qilinadi?

***XXIV. Boshlang'ich sinflarda bayon yozilishi tashkil etish asosida
bolalar nutqini o'stirish usullari.***

1. O'quvchilar nutqini o'stirishda bayon yozish qanday ahamiyatga ega?
2. Bayon yozish nechanchi sinfda, qanday matn asosida yozila boshlanadi?
3. Bayon yozish uchun 3 – sinfda nechaso'zli matn tanlanadi?
4. Bayon yozish o'quvchilarni qanday ta'limiy yo'nalishida zamin bo'ladi?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbek tili imlosini tasdiqlash haqida. – Toshkent, 1995 yil.
2. G'ulomov X. – Toshkent: ``O'qituvchi / 1997, 2-10- betlar.
3. Husnixat dasturi. – Toshkent: ``O'qituvch`` , 1997, 3 – 9- betlar.
4. G'afforova T. G'ulomova X. G. 1 –sinfda savod darslari. ``O'qituvchi``, 1996, 16- 22- 12- 14, 29- 32 betlar.
5. Birinchi sinfda o'qitish. ``O'qituvchi``1975, 56- 60 betlar.
6. „ Umumiy o`rta ta`limning davlat ta`lim standarti va o`quv dasturi (Boshlang'ich ta`lim). - „Ta`lim araqqiyoti axborotnomasi``. 1999, 7- maxsus son. – Toshkent: „Sharq`` , 105 – 115betlr
7. Shoabdurahmonov Sh. Va boshqalar, - Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent: 1980, 78- 85 betlar.
8. Tursunov U. va boshqalar. – Toshkent; „O'zbekiston``, 1992, 44- 46 betlar.
9. Sodiqov A. va boshqalar. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1981. 72 87- betlar.
10. Ensiklopediyani tojik. Iborat az 8 jild. Jildi 7. Dushanbe, 1987, sah. 613- 619.
11. O'zbek sovet ensiklopediyasi. 14 – jildlik. 12 –jild. Toshkent.
12. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 14 jildlik. 12 jild. Toshkent.
13. Is`hoqov M. Unitilgan podsholiklardan xatlar. –Toshkent: „Fan``. 1992
14. Abdullayev Y. Hamrohim. „Toshkent`` O'qituvchi`` 1996, 6- 22 – betlar.
15. "1921 yil yanvarida bo'lgan birinchi o'lka o'zbek tili va imlo qurultoyining chiqarg'on qarorlari ". –Toshkent Turkdavnashr 1922. 22-bet
16. "Maorif va o'qitg'uvchi " jurnali . 1925, 9-10-son 121-bet. 1926,3-son 31-bet. 5-son, 41-53-betlar

17. G`ulomov M. Husnixat (2-sinf uchun – usuliy qo`llanma) –Tosh:
“O`qituvchi”.1997 y
18. Abdullayev Y. Sovhg’a. - Toshent “O`qituvchi” 1996.
19. Mallayev N. o`bek adabiyoti tarixi. –Toshket 1981-yil.
20. 1-2-sinf Husnixat darsligi.-Toshket, 2000yil.
21. 3-4-sinf Husnixat darsligi.-Toshket, 1997yil

MUNDARIJA:

1. Husnixat va uni o`qitish metodikasi fanining maqsadi va vazifasi.....
2. Yozuvning poydo bo`lgan tarixi va uning jamiyat tarixida tutgan o`rni.....
3. Joxon
xalqlari.....

4.	Xattotlik
san'ati.....	
5.	Lotin yozuvida asoslangan o'bek alifbosi
tarixi.....	
6.	Yozuvga o'g'atish jarayanining nazariy va amaliy
asoslari.....	
7.	Yozuv daftari asosida olib boriladigan
mashg'ulotlar.....	
Adabiyotlar	
ro'yxati.....	